

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

ZABARDAST SO'Z ZARGARI



Alisher Navoiy,
Maxtumquli va
Ibroyim Yusupov
turkiy xalqlar
she'riyatining
payg'ambar nafasli
shoirlaridir.

Qaysin QULIYEV

(5-sahifada o'qing.)

MA'RIFAT ULASHIB

Oxirgi marta qachon gulxan atrofida gurgung qilgan-siz? Eslay olasizmi? Agar yodingizda bo'lsa, sizga havasim keladi. Sababi, mening esimda yo'q, chunki o'n yil, yigirma yil emas, juda ko'p bo'lgan bunday zavqni tuymaganimga.

Ha, gulxan atrofida to'planib, dildan suhbat qurish kishiga betakror zavq, huzur-halovat beradi. Tasavvur qiling: tun, atrofn o'yni nuri yoritib turibdi, qayerdandir chigirtkaning chirillashi eshitildi, o'rtada gulxan...



GULXAN RANGLARI

Darvoqe, gulxanning rangiga, hidiga e'tibor berganmisiz? Gulxan necha xil rangda tovlanadi? Qizil deysizmi? Yo'q, unda faqat qizil emas, sariq, ko'kish, hatto oq va yana qanaqadir ranglar bor. Biz kamalak rangiga oshufta bo'lamiz, ammo gulxan rangiga ahamiyat bermaymiz. Holbuki, gulxanning sonsiz ranglari, ularning tovlanishi, raqqosalar kabi o'ynoqlab, jilvalanib yonishi naqadar go'zal, naqadar fusunkor. Gulxanning isini aytmaymiz! Biron marta bo'lsin hidlaganmisiz? Bu hidni hech narsa bilan tenglashtirib bo'lmaydi! Gulxanning chirs-chirs yonishi-chi? Qandaydir musiqani

yodingizga solmaydimi?! Bular qalbga orom, dilga rohat, asabga malham beradi.

Go'zallik deganda beixtiyor gulni tasavvur qilamiz. Chunki gul - go'zallik, nafosat ramzi. Biroq astoydil go'zallik istagan odam hamma narsadan uni topa oladi, barcha mavjudotda ko'radi go'zallikni.

Men yaqinda gulxan go'zalligidan bahramand bo'ldim, uning zavqiga oshno, maftun bo'ldim. Uning jilva qilib, eshilib, to'lg'anib yonishiga termulib o'tirarkanman, ozgina fursatga bo'lsa-da, barcha g'am-u tashvishlarni unutdim, vujudimdagi jamiki g'uborlar ko'tarildi, gulxanning ta'riflab bo'lmay darajadagi tafti ru-

himni tozaladi, juda yengil tortdim. Eng muhimi, oltmish yillar ortga qaytdim, yon-atrofimdada o'tirgan talaba yigit-qizlar yoshidagi davrimga tushdim go'yo. Ishonasizmi, o'zimni ulug' yoshdagi kishi emas, yigirmaga borib-bormagan, tog'ni ursa talqon qiladigan, qadamidan o't chaqnaydigan yigit kabi seza boshladim. Go'yo ko'zlari yonib turgan yigit-qizlar o'rtasida yoshi bir joyga borgan "yigit" o'tirardi. Ular ham asta-sekin meni tengqurlari kabi ko'ra boshladi. Va davramiz tengdoshlar gurungiga aylandi.

(Davomi 2-sahifada.)

IBRAT

BAXT EL BILAN BIRGA TO'KIS

– Men tadbirkor sifatida yurtimizda bu borada yaratib berilgan imkoniyatlardan to'liq foydalanib kelyapman, – deydi Toshkent shahridagi Astrobod mahallasida joylashgan "Nova school" nodavlat ta'lim muassasasi rahbari Zebo Mo'minova. – Avvallari qo'limiz bog'liq, oyoqg'imiz tushovli edi, zig'irday insofi bor odam buni to'la-to'kis e'tirof etadi. Biroq alloma adibimiz Asqad Muxtor yozganidek: "Naqshin olmani cho'qib, uning ichidan qurt qidiradigan" toifa ham borki, ularning ijtimoiy tarmoqlarda ko'ngling jo'shib bildirgan fikrlariga nisbatan kinoyalik munosabatlariga ham duch kelasan. Garchi bu g'alamislik nafsoniyatimizga tegsa-da, biz o'z fikrimizda sobitmiz. Chunki hayotdan, jamiyatdan va davlatimizdan rizoligimizni izhor qilishga o'zimizni na-faqat haqli, balki burchlimiz deb hisoblaymiz.

Biz ham aslida Zeboni aynan ana shu saboti, qat'iyyati, meh-natsevarligi, shijoati va eng asosiysi, ma'rifati sabab yo'qlab bordik. Uning ta'lim va amaliyotni barobar olib borishga doir asosli



mulohaza va g'oyalari o'zi tashkil etgan xususiy maktabda birin-ke'tin ro'yobga chiqayotganiga guvoh bo'ldik.

Muhtasham maktabga kiraverishdayoq, "Qaniydi yurtimizdagi hamma bolalar ham ana shunday binolarda ilm o'rgansa", degan fikr o'tdi xayolimizdan. Zamonaviy sinf xonalari, sport zali va o'quvchilarga yaratilgan sharoitlarni birma-bir ko'rsatayotgan Zebo Mo'minovaning ommadon o'quvchilarga havas qildik. Ichki devorlarning ranglaridagi uyg'unlik, modern uslubida yasalgan parta va kursilar, maxsus shax-

mat stollari, so'nggi rusumdagi laboratoriya jamlanmalari, elektron doskalar, 8-10 kishiga mo'ljallangan oynavand lift...

Tadbirkor bu jihozlarni Turkiyadan olib kelganini aytdi. Uning har bir detalga malakali dizayner kabi ahamiyat bergani odamni hayratga soladi. Shaxmat mashg'ulotlari xonasining to'liq oynavand tomonidan ko'chada g'iz-g'iz o'tib turgan avtoulovlar harakati va tabiatning jonli tasviri yaqqol ko'rinib, kishi ruhiga sokinlik bag'ishlaydi.

– O'n bir yil oldin Yunusobod tumanida maktabgacha tayyor-

lov o'quv kursi tashkil qilish maqsadida besh xonali uy sotib oldik, – deydi Zeboxon. – Uni ta'mirdan chiqarib, o'n nafar o'qituvchi-pedagogni kursimizga jalb qildik. Bolalarini kun davomida bizga qoldirib ketishga majbur bo'layotgan ayollarning sharoitini hisobga olib, "Onalar soati" bo'limini ochishimizga to'g'ri keldi. Keyinchalik ana shu ayollar: "O'quv markazingizni xususiy bog'chaga aylantirsangiz yaxshi bo'lardi", deb iltimos qilishdi.

(Davomi 4-sahifada.)

OYINA

"JAMIYATI XAYRIYA" DAN "EL-YURT UMIDI" GACHA

O'z davrining renessans beshiklari bo'lgan Bag'dod, Ma'mun akademiyasi kabi mashhur ma'rifat maskanlariga dunyoning turli burchaklaridan ziyo izlab tolibi ilmlar oqib kelishgani bugun barchamizga ayon. Ajdodlarimiz o'z navbatida ilm-fan taraqqiy etgan markazlarga borib tahsil olishgan, ta'dqiqotlarni amalga oshirishgan. Yuz yil avvalgi gazetalarni varaqlaganda bobolar an'anasini davom ettirgan jaddilar ham yoshlarni chet ellarda o'qitish, ayniqsa, Yevropa ilm-fani yutuqlari bilan tanishtirish masalasiga alohida e'tibor qaratganiga guvoh bo'lamiz. Ular millatning taraqqiy yo'lini yoshlarni ilmiy qilish, texnika va ilm-fan taraqqiyoti, turli ixtirolardan xabardorlikda, deb bilishadi.



Shu maqsadda 1909-yilda Toshkentda tuzilgan Turkiston jaddilarining "Jamiyati xayriya" tashkiloti tomonidan talabalarni xorijga o'qishga jo'natish harakati boshlanadi. O'sha yili Buxoro shahrida tuzilgan "Tarihiy atfol" jamiyati ham Fitrat, Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li, Ato Xo'ja, Mazhar Burxonov kabi ko'pgina yoshlarni Istanbulga o'qishga yuborgan. 1922-yilga kelib Fitrat, Botu va Cho'lponning g'oyaviy boshchiligidagi talabalarning oliy ta'lim olishiga sharoit yaratish, ular chet ellarda duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni yengillatish maqsadida "Ko'mak" uyushmasi tashkil qilinadi. Ma'lumotlarga ko'ra, Germaniyaga o'qishga jo'natilgan mahalliy yoshlar uchun Buxoro hukumati tomonidan 125 ming dollar pul, Yevropada qiymati baland hisoblangan noyob qorako'l terilari yuboriladi va bu "iona" talabalarning 1924-yilgacha bemalol o'qishi uchun kifoya qilgan.

Shuningdek, ular Berlinda V.Geysbergstrit ko'chasidagi 39-uyini ham sotib olib, turkistonlik talabalar uyiga – yotoqxonaga aylantirishadi.

Ushbu uyushma bir yilgina faoliyat yuritgan bo'lsa-da, 200 nafardan ortiq yoshlarni xorijiy mamlakatlarga o'qishga yuborishga muvaffaq bo'ladi. O'sha taloto'p zamonlarda, ocharchilik va yo'qchilik hukm surgan davrda yuzlab millat yoshlarini xorijga o'qishga yuborish va ularga homiylik qilish nafaqat muvaffaqiyat, balki ulkan jasorat edi. Afsuski, Vatanga xizmat qilish orzusida bu tashkilotni tuzgan millat oydinlari hamda el-yurt umidi bo'lgan tolibi ilmlarning aksariyati keyinchalik qatag'onga uchragan.

Bugun ham yurtimizning dovrg'ini dunyoga tanitish, uning iqtisodiy qudratini oshirib, islohotlar ko'lamini yanada kengaytirishda ilm-fanning, sifati ta'limning o'rni beqiyos. Ayniqsa, respublikamizning chekka hudud-

larida istiqomat qiluvchi yosh iqtidor egalarni izlab topish va tanlash, ularning xorijdagi nufuzli muassasalarda ta'lim olishini ta'minlash maqsadida "El-yurt umidi" jamg'armasi tashkil etilgan.

Jamg'arma 1997–2003-yillarda "Umid", keyinroq "Iste'dod", "Ustoz" nomlari ostida faoliyat yuritgan. Bu tashkilotlar ham yoshlarning xorijda ta'lim olishiga ko'maklashishga asosiy e'tibor qaratgan. Hozir ham islohotlar mohiyatini teran anglaydigan, mamlakatga yangicha ruh olib kiradigan, zamonaviy dunyo bilan muloqotga kirisha oladigan kreativ mutaxassislariga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Shu bois ham Prezidentimiz tashabbusi bilan 2018-yili yuqorida tilga olingan muassasa "El-yurt umidi" jamg'armasi sifatida qayta tashkil qilinib, vakolat va imkoniyatlari kengaytirildi.


(Davomi 3-sahifada.)

TAQDIMOT

Gazetamizning o'tgan sonida Misr Arab Respublikasida buyuk adibimiz Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani nashr etilgani haqida xabar bergan edik. Shubhasiz, milliy adabiyotimiz durdonalaridan sanalgan ushbu asarning arab tiliga tarjima qilinishi madaniy hayotimizda muhim voqea hisoblanadi.

Qohira shahrida bo'lib o'tgan taqdimotda ushbu mamlakat adabiy jamoatchiligi vakillari o'zbek xalqining boy madaniyati va qadriyatlarini yorqin tasvirlagan mazkur roman Ayn-Shams va Luksor universitetlari professori, taniqli adib va tarjimon Muhammad Nasr al-Jibaliy tomonidan arab tiliga katta mahorat bilan o'g'irilganini e'tirof etishdi. Shu o'rinda mamlakatimizning Misr Arab Respublikasidagi elchixonasi mutasaddilari, xususan, elchixonas mas'ul xodimi Otobek Alimov bunday savobli ishga bosh qo'shib, mutarjimga har tomonlama ko'mak berganini ham alohida ta'kidlash lozim.

Quyida Abdulla Qodiriy uy-muzeyi direktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Xondamir Qodiriyning arab tilidagi "O'tkan kunlar" romaniga yozgan so'zboshisini e'tiboringizga havola qilamiz.



TAHRIRIYAT

MAKON VA ZAMON TANLAMAYDIGAN NAVO



Maqolaning avvalida Abdulla Qodiriy yashab, ijod qilib o'tgan tarixiy davr haqida qisqagina ma'lumot berib o'taman.

Abdulla Qodiriy 1894-yil Toshkentda tug'ilganida Qo'qon xonligi chor Rusiyasi tomonidan istilo etilib, Turkiston mustamlaka holda yashayotganiga 18 yil bo'lgan, bu davr ichida Rusiya bu yerdagi barcha boyliklarni o'z qo'l ostiga olgan edi. U bu vaqt davomida sanoat va xo'jalik mollari bilan Turkiston bozorlarini to'ldirishga va o'zining to'qimachilik sanoati uchun g'oyat zarur bo'lgan mahalliy paxtachilik sanoatiga katta e'tiborini qaratgan edi.

Mahalliy boshqaruvning eng yuqori pog'onalarida ruslar turib, faqat diniy e'tiqod, shariat qonun-hukmlari, musulmon o'quv ta'limi, vaqf yerlari, xususiy mulk daxlsiz qolgan edi.

1917-yilda esa Lenin boshchiligidagi sho'ro kommunistlari chor Rusiyasida davlat to'ntarishi yasab, 7-noyabr kuni hukumat tepasiga keladi.

(Davomi 2-sahifada.)



Boshlanishi 1-sahifada.

Avvaliga sal tortinib, imyanib turgan talabalar erkin, ochiq va dadil gapirishga o'tdi. Kutilmagan savollar, turli-tuman takliflar aytiladi. Hatto bir talaba universitetning birinchi prorektoriga "dashnom" berib: "Domla, bu davrani tashkil etish haqida gap ketganda, emin-erkin o'tiramiz, ochiqchasiga gurung qilamiz, rasmiy kiyimlarni yechib tashlaymiz, degan edingiz. Aytganingizga amal qilib, hamma oddiy kiyimda, hatto meh-



monlar ham, siz esa loqaqal bo'yin-bog'ingizni yechmapsiz", dedi. Hamma qarsak chaldi. Prorektor Alibek G'afarov zamonaviy, madaniyatli rahbar ekan, talabaning e'tirofidan ranjimadi, mamnun bo'ldi. "To'g'ri aytasan, shunday deganman. Afsuski, uyim uzoq bo'lgani uchun kiyimimni almashtirib kelishga ulgurmadim. Ammo sizlar bunga e'tibor bermanglar", dedi.

Ellik-oltmish atrofida talaba yig'ilgan. Biri qo'yib, ikkinchisi she'r o'qiydi, savol beradi, raqsqa tushadi. Kaminaning bir hikoyasi asosida sahna ko'rinishi tayyorlashibdi. Bir necha talabalar o'zlarining she'rlarini o'qidi.

Vaqt o'tib boryapti. Lekin hech kimning ketgisi kelmaydi, aksincha she'rxonlik, bahs-munozara, fikr almashish, savol-javoblar avjiga chiqadi. O'rtada gulxan lovvallab yonadi. Havo ham g'oyat mo'tadil. Prorektor qulog'imga shivirladi: "Vaqt ancha mahal bo'ldi, charchamadingizmi? Balki, tugatamiz. Ertaga yana bir necha uchrashuvingiz bor". Soat necha bo'lganini ham so'ramadim. "Yana biroz o'tiraylik. Bunday davra har doim bo'lavermaydi", dedim. Ko'pincha bunday tadbirlar nomingagina, rasmiyatchilik uchun o'tkaziladi. Shunaqa holatlarda Abdulla Oripovning "Ko'lmak davra ko'rsam ezilar ko'nglim", degan misrasi yodga keladi. Bugungi davra nihoyatda jo'shqin, toshqin. Ishtirokchilarning tuyg'ulari, hissiyotlari, hayajonlari ichiga sig'mayapti. Ularni to'xtatish uvul edi...

Bu davra - Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida "Ma'rifat ulashib" loyihasi doirasida

o'tgan tadbirlardan biri. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan mazkur loyiha ijrosini ta'minlash uchun Yozuvchilar uyushmasi tomonidan shoir va yozuvchilar ellik ikki guruhga (har bir guruhda uch nafar shoir va yozuvchi) bo'linib, mamlakatimizdagi barcha

ozod va farovon yashashdan ko'ra muhim, qadri narsa yo'q. Demak, istiqlolimizni mustahkamlash, uni turli yovuz kuchlardan, xususan, g'arazli axborot xurujlaridan himoya qilish mamlakatimizda yashovchi har bir fuqaroning muqaddas burchi hisoblanadi. Xalqimizning ozod yashashini orzu qilib, shu ezgu niyat yo'lida kurashib qancha-qancha jadid bobolarimiz jonlarini qurbon qildi. Ular xalqimizni ro'shnolikka olib chiqish uchun turli vositalardan foydalandi: gazetalar, jurnallar chiqardi, maktablar ochdi, teatrlar tashkil etdi. O'sha fidoyi bobolarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, tahlil qilish, ulardan o'rnak olish bugun nihoyatda muhim va zarur. Bunga davlatimiz rahbari katta yo'l ochib berdi, keng imkoniyatlar yaratdi. U kishining tashabbusi bilan "Jadid" nomi bilan maxsus gazeta nashr qilina boshladi.

Biz uzoq-yaqin tarixda o'tgan buyuk ajdodlarimiz, jumladan, jadid bobolarimiz bilan faxrlanamiz, g'ururlanamiz. Ammo faxrlanishning o'zi yetmaydi. Har birimiz ularga munosib bo'lmog'imiz kerak. Biron ishga qo'l urar ekanmiz, tepamizda o'sha bobolarimiz kuzatib turganday his etaylik. Masalan, shifokor bemor bilan muloqot qilayotganda, uni davolashga kirishganda yelkam osha Ibn Sino bobomiz qarab turibdi, deb o'ylasin. Qilayotgan ishimi ko'rib, barakalla, o'g'lim, baraka top, qizim, deydimi yoki "Oq xalatingni yech-da, boshqa ish qil", deydimi, degan hadik va mas'uliyatni unutmasligi lozim. Shifokor bo'lish niyatida tibbiyot universitetiga kelgan har bir yigit-qiz ilk qadamidan ana shu mas'uliyatni zimmasiga olmog'i kerak. Bunday mas'uliyat barcha soha-ga tegishli.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti faoliyati bilan tanishib, professor va o'qituvchilar, talabalar bilan suhbatlashib, bu maskanda ana shu mas'uliyatni unutmaslik zarur, degan tushuncha hukmron ekaniga amin bo'ldik. Universitet tarixi muzeyi yaratilibdi. Birinchi prorektor Eldor Tangirov muzey bilan batabafsil tanishtirdi. Ochig'i, bu muzeyni ko'rib hayratda qoldik. Nihoyatda katta ish qilingan: universitet tarixi yilma-yil xronologik tarzda aks ettirilgan, juda noyob suratlar, ashyoalar topib qo'yilgan. Bir so'z bilan aytganda, muzey - universitet tarixining ko'zgusi. Ushbu dargohdan o'nlab akademiklar, professorlar, viloyat va respublika darajasidagi rahbarlar yetishib chiqqan. Talabalar uchun muzey tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Ikkala universitetda o'tgan uchrashuv va muloqotlarimiz bir-biridan zavqli, qiziqarli bo'ldi. Bizni quvon-

tirgan jihatlar ko'p. Ulardan eng asosiysi - Veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida ham, Tibbiyot universitetida ham ma'naviyat va ma'rifatga katta e'tibor berilar ekan. Birinchi universitetda "Besh tashabbus markazi" faoliyati yo'lga qo'yilgan. Markazning asosiy maqsadi - ta'lim-tarbiya jarayonini har tomonlama rivojlantirish, besh muhim tashabbus asosida talabalarni ilg'or g'oyalarga yo'naltirish, milliy qadriyat, urf-odat va an'analarini mujassam etgan dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirishdir. Shu asosda markazda "Quvnoqlar va zukkolar", "Talabalar



teatr studiyasi" klubi, "Sozanda yoshlar", "Ranglar sehiri" to'garaklari tashkil etilgan. Ularda yetti yuzga yaqin talaba ishtirok etadi. Sportning bir necha turi bo'yicha faoliyat olib borayotgan to'garaklar talabalarining sevimli maskaniga aylanibdi.

"Kompyuter bilimdonlari", "Zakovat", "Mutolaa zavqi", "Notiqlik san'ati" klub va to'garaklar ham doimo talabalar bilan gavjum. Beshinchi tashabbus bo'yicha tashkil etilgan "Dilbar qizlar" klubi, "Mohir qo'llar", "Pazandalik" va "Tikuvchilik" to'garaklariga 380 nafar talaba qiz jalb qilingan. Muxtasar aytganda, universitetda yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga alohida ahamiyat berilishi diqqatga molik.

Tibbiyot universitetida "Feruz" ashula va raqs ansambli to'garagi, "Ibn Sino izdoshlari" teatr-studiyasi tashkil etilgan. Ushbu studiya qatnashchilari "Ona - hayot beshigi", "Qush tili", "Urush, noming o'chsini

jahonda" kabi spektakllar va ko'plab etyudlarni sahnaga olib chiqqan. "Renessans", "Ko'chki" spektakllari va "Bir jadid tarixi" nomli sahna ko'rinishi bir qancha tanlovlarda faxrli o'rnlarni egallagan. Universitetda jamoatchilik asosida rassomlik to'garagi ishlab turibdi. Unga rassom Asror Turdiyev rahbarlik qiladi. To'garakka oltmishdan ziyod talaba qatnashgan. Ular ishlagan kartinalarni tomosha qilib, havasimiz keldi.

Har ikkala oliy ta'lim muassasasi talabalari orasida adabiyotga, san'atga qiziquvchi yoshlar ko'p ekan. Bu ularning savollar berishidan ham ko'rinib turibdi. Boz ustiga,

biriktirilgan Samarqand tumanidagi uchta maktabda ham uchrashuvlar o'tkazdik. Bu jarayonda "Bog'cha - maktab - oliy ta'lim muassasasi" konsepsiyasi bo'yicha olib borilayotgan tizimli ishlar o'z samarasini berayotganiga amin bo'ldik. Chunki maktab o'quvchilarning bilim doirasi, fikrlash tarzi kishini mamnun etadi. Ularning savollar berishi, she'rlar o'qishi havasimizni keltirdi. Eng muhimi, yoshlarning aksariyati o'zini erkin tutadi, tortinmay savol beradi, she'rlarni jaranglatib o'qiydi. Xususan, kamina Jomboy tumanidagi 17-maktab o'quvchilari bilan ochiq muloqotda bunga guvoh bo'ldim. O'quvchilar pianino chalyapti, ashula aytyapti, raqsqa tushyapti, she'rlar o'qiyapti. Shu tumanidagi 12-maktabning 8-sinf o'quvchisi Nargiza Muhammadiyeva "Yosh kitobxon" tanlovining mamlakat bosqichida o'n-o'n to'rt yosh toifasida birinchi o'ringa sazovor bo'lib, Prezidentimiz sovg'asi - "Cobalt" avtomobili bilan taqdirlangani bejiz emasligiga amin bo'ldim.

Shoir va yozuvchilarning maktablarga borib, o'quvchilar bilan ochiq suhbatlar qilishi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ular shu uchrashuvlarni keyin ham eslab yuradi, o'quvchilar uchun nihoyatda muhim rag'bat - motivatsiya bu. Biz maktabda o'n bir yil o'qib, biron marta shoir va yozuvchi yoxud boshqa tanqili kishilar bilan uchrashmaganmiz. Adiblarning asarlarini o'qirdik, ammo ularning o'zlarini bilan bevosita muloqotda bo'lish, dastxati bitilgan kitoblarni olish xayolimizga ham kelmadim. Bugungi o'quvchilarda shunday imkoniyatlar bor. Bunday imkoniyatlardan samarali foydalanish har ikki taraf, ya'ni o'quvchilar uchun ham, adiblar uchun ham foydali. Bu kabi tadbirlar boshqa sohalaridagi tanqili kishilar bilan ham tashkil etilsa, nur ustiga nur bo'ladi...

...Sokin tun. Osmonga qarayman. Yaqindagina tepamizda turgan oy daraxtlar ortiga o'tibdi. "Kecha oqshom falakda oy bo'zarib botgan-da, Zuhr yulduz millitrab, xira xanda otganda..." deya Abdulla Oripov misralarini shivirladim. Gulxan tovlanib, jilvalanib yonardi, go'yo sira o'chgisi kelmasdi. Uning atrofidagi yigit-qizlarning ham jilgisi yo'q, davra endigina boshlanganday sho'x-shodon qiyqirib she'r o'qir, ashula aytar edi. Bunga sari ularning ko'zlari gulxan yog'dusida charaqlab ko'rinaridi. Nazarimda, har birining qalbi gulxan kabi qaynoq, tuyg'ulari rang-barang, hissiyotlari tizginsiz edi. Bu olavqalb yoshlarga havas va hayrat ila qaraganista istak-xohishimizga qarshi bo'lsa-da, vaqt hukmiga bo'ysungan holda xayrlashdik. Uzoqlashganimiz sari ularning sho'x-sha'n ovozlari yanada balandroq, yanada tiniqroq eshitilar edi...

Mamatqul HAZRATQULOV,
yozuvchi

Boshlanishi 1-sahifada.

1917-yil 20-noyabr kuni esa sho'rolar hukumatining Rusiya sarhadlarida yashayotgan musulmon xalqlariga qarata: "... Siz o'z mamlakatingizda o'zingiz xo'jayin bo'lmog'ingiz lozim. Siz o'z hayotingizni, turmush tarzingizni shunga monand ravishda barpo etishingiz mumkin..." mazmunidagi murojaatnomasi e'lon qilinadi.

Ana shu murojaatnomadan ruhlanib, ishonch olib, Qo'qon shahrida Turkiston muxtoriyati (1917-yil 25-noyabr) tuzilib, jadidlar va ozodlik kurashchilari sho'ro hokimiyatiga o'zining siyosiy munosabatini bildiradi. Bunga javoban sho'ro hukumati 1918-yil 19-fevral kuni musulmon xalqiga nisbatan qanday siyosiy niyati borligini bildirib, qurolsiz Qo'qon xalqini uch kun to'pga tutadi, tarixiy binolar vayron qilinadi, tinch aholining uy-ulariga o't qo'yiladi, Qo'qonda o'n mingdan ortiq odam o'ladi...

1917-yilda Rusiya, Sibir, Qozog'iston, Turkistonning boshiga yana boshqa bir tabiiy ofat-kulfat keladi. Shu yil bahor oyidan bu o'lkalarda haddan tashqari issiq boshlanadi, ekinlar suvsizlikdan quriy boshlaydi. Hademay ocharchilik va qimmatchilik boshlanadi. Buning ustiga, davom etib kelayotgan Birinchi jahon urushining (1914-1918) iqtisodiy zarari mamlakatning xalq xo'jaligini va qishloq xo'jaligini butunlay izdan chiqaradi. Negadir qish ham haddan tashqari sovuq keladi.

Natijada, hukm surayotgan sho'rolar mamlakatida dahshatli ocharchilik boshlanadi. Manbalarda ko'rsatilishicha, Turkistonda 1919-yilga qadar ochlikdan 1 million 114 ming odam o'lgan. Ocharchilik 1924-yilning oxiriga qadar davom etgan ekan.

MAKON VA ZAMON TANLAMAYDIGAN NAVO

Ana shunday kulfatli kunlarda Abdulla Qodiriy matbuot maydoniga kirib keladi. Uning 1918-yilda Farg'ona vodiysidan "Ulug' Turkiston" gazetasi uchun yo'llagan xabar mazmunidagi dastlabki maqolalaridan biri o'quvchining e'tiborini tortadi: "Ochliq balosi. Namangan shahriga tobe To'raqo'rg'on nom qishloqda ochliq sababli Orziqul nomi odam xotuni ham to'rt bolasi birla shishinub halok bo'lgan. Shunday og'rinnuv ila ko'chalarda ham halok bo'lgan odamlar bo'ldi... Ushbu ahvollarga shohid bo'luv odamning jonin titratidir va ixtiyorsiz ko'zdan yosh oqizadir. Janobi Haq shunday ellarga barakat yuborsun edi deb, duo qilamiz. A. Qodiriy".

Ushbu maqolaning yozilgan vaqtini e'tiborga olsak, demak, Qodiriy Turkiston muxtoriyatining yashab turgan kunlarida o'sha yerda bo'lgan, Farg'onada bo'lib o'tayotgan hamma fojialarni o'z ko'zi bilan ko'rgan. Lekin vodiya borishdan yana bir asosiy maqsad - yozmoqchi bo'lgan kitobiga tarixiy manbalarni izlash, o'rganish...

Qo'lingizdagi kitob ilk bor nashr bo'lgan vaqtlarda Turkiston xalqi faqat diniy kitoblar, dostonlar va bir qism odamlarigina sho'rolarning kundalik gazetalarini o'qib kifoyalana edi. Roman degan kitobni rus tilidan xabardor ayrim o'zbek ziyolilari rus adabiyotidan o'qib zavq olgan bo'lsalar, lekin oddiy xalq bu janrdan bexabar, bebahra edi. "O'tkan kunlar" 1925 va 1926-yilda uch bo'limga alohida kitob holida 10.000 nusxadan chop etiladi. U sekin-asta xalq orasiga kirib boradi.

Aytishlaricha, besh-o'n yil davomida u shunday dovrug' oladiki, Turkistonning uzoq-uzoq viloyatlarida yashovchi odamlar ham o'zaro pul yig'ib "Kumushibining kitobi"ni (o'sha vaqtdagi odamlarning iborasi) topib olib kelish uchun Toshkandga chopar jo'natar ekanlar. Yana xotiralarda yoziqshicha, Toshkandda, boshqa shaharlarda va qishloqlarning choyxonalarda, xonadonlarda guruh-guruh odamlar bir kishiga bu kitobni o'qitib, tinglab zavq olishar ekan.

Hatto bir davrada bir muxlis 420 betlik kitobni yoddan o'qib, shu davrada tinglab o'tirgan muallifni ham zavqlantirgan, Qodiriy uning yelkasiga banoras to'n tashlagan ekanlar. Bu holatni adib shunday e'tirof etadilar: "Inqilobga qadar bizning xalq turmushdan yiroq afsonalarnigina o'qib kifoyalana edi. Shu afsonalarning o'rni bosarli biron kattaroq realistik asar yaratishga niyat qilgan edim. Quvonib aytamanki, niyatimda yangilishmadim. "O'tkan kunlar" romanim o'zbek oilasiga chuqur singib kirdi, kitobxonlarni anavi afsonalarni o'qishdan xalos etayozdi".

Biroz o'tib 1928-yil keladi. Bu yillarda Stalin hokimiyati o'zini ancha tiklab olib, mustabid g'oyalarni hamma sohada joriy qila boshlagan edi. Jumladan, adabiyot va san'at sohasida ham. Bu sohaning qolipi "shaklan milliy, mazmunan sotsialistik" deb belgilab qo'yildi. Albatta, "O'tkan kunlar" romani bu qolipga mutlaqo tushmas edi. O'sha yildan gazetalarda "O'tkan kunlar"ni

tanqid qilib yozilgan maqolalar chiqq boshladi. Ularning asosiy maqsad-mazmuni: "romanda odamlar boy va kambag'alga emas, yaxshi va yomonga ajratiladi", "sinfiylik yo'q", "sinfiy kurash yo'q", "proletariat adabiyotining ijodiy vazifalarini bajarishga yaroqli emas", "u mayda burjuaziyaning vakili" kabi da'volardan iborat edi. Shunday mazmundagi o'ndan oshiq tanqidiy maqolalar 1937-yilgacha chop etib turildi. Oxir-oqibat bunday da'volar Qodiriyning boshini kundaga olib keldi. Uning nomi va ijodi qoralandi...

1956-yil Abdulla Qodiriy oqlandi. Uning asarlari yana qayta nashr etilib, odamlar qo'lga berildi...

Turkiston - hozirgi O'zbekiston arab mamlakatlari bilan azaldan iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy, tijoriy aloqada erkin yashaganlar. Bu haqda tarixiy, adabiy manbalarda ming-minglab misol-xabarlar yozib qoldirilgan. Lekin zamon zayli va odamlarning loqayd-befarqligi bilan 1920-yillarga kelib bu aloqalarga qat'iy chek qo'yila boshladi. Lekin bu ikki tarafning orasida hali-hamon mustahkam bog'lab turuvchi ming yillik ruhiy va ma'naviy tarix bor, madaniyat bor. Ularni har tarafлама bog'lab turuvchi Forobiy, Farg'oniy, Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy, Buxoriy va boshqa allomalar bor. Bu buyuklar qatoriga Abdulla Qodiriyning ham qo'shsangiz, ajab emas, deb o'ylayman.

Chunki Qodiriyning e'tirof etishicha, Misr fuzalosi Jurji Zaydonning tarixiy asarlarini o'qib,

uni o'ziga ustoz deb bilgan, undan ilhom olib, "O'tkan kunlar" kitobini yozgan ekan.

Ha, taqdirning izni bilan Iroq yurtidan Zirg'om Farg'onaga kelib, Jahonbiga uylanganida, Otabekning dard-u tashvishi mislik yigitlarda yo'q, deb o'ylaysizmi? Toshkand - Marg'ilon ko'chalari yurgan Otabek Qohira - Minya ko'chalari yurgan, deb o'ylaysizmi? El dardida soqli oqargan Yusufbek hoji yoki xo'jasiga o'kirligi bilan tanilgan O'zbekiyom Iskandariyada, Tantoda yoki Ismoliyada uchramaydi, deb o'ylaysizmi? Yo bo'lmasa, o'zbek ayollarning sadoqat va hayo timsoliga aylangan Kumush qizni Misring shahar va qishloqlarida kim ko'rmagan, deysiz?

Men ishonaman, romanda yashagan bu siymolar O'zbekistondagina emas, Misrda ham bor va ular hamon yashab kelmoqda. Yana eng qadriisi, kitobda e'tirof etilgan o'zbekona qadr-qimmat, mehr va oqibat Misr xalqiga ham xosdir. Ana shu fazilatlar bor ekan, bu ikki xalq azaldan qo'ni-qo'shni bo'lib yashagan va bundan keyin ham yashayveradi.

Adabiyot, aslida millat, makon va zamon tanlamaydigan, inson ongi va tafakkuriga tarbiya beradigan san'atdir, navodir.

"O'tkan kunlar" romani Misr xalqi kitobxonlarining ko'ngil ko'ziga ozzina bo'lsa-da, ma'nan hissa bo'lib qo'shila olsa, Qodiriy boboning ruh-lari shod, oxiratlar obod bo'lur, deb o'ylaymiz.

Adibning nabirasi
XONDAMIR



9-MAY – XOTIRA VA QADRLASH KUNI

URUSHNI KO'RMA, BOLAM!



Bundan 75 yil oldin Parij va Praga shaharlarida bo'lib o'tgan butun dunyo tinchlik tarafdorlari kongressining ramzini yaratish mashhur rassom Pablo Pikassoga topshirilgan edi. Musavvir emblemagacha buyuk to'fon voqeasida Nuh alayhissalom tomonidan yer yuzida hayot nafasi borligini bilish uchun uchirilgan va tumshug'ida yam-yashil zaytun daraxtining shoxi bilan qaytgan kabutarni tasvirlaydi. Keyinroq o'zining bu ishlanmasi haqida shunday deydi: "Men o'limga qarshi hayot uchun, urushga qarshi tinchlik uchun ovoz beraman!"

Har yili Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan g'alaba qozonilgan tarixiy sana yurtimizda munosib nishonlanib, qahramon ota-bobolarimizning pok ruhlarini yodga olinadi. Yaqindagina Prezidentimizning

"9-may – Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, bu borada amalga oshiriladigan vazifalar belgilab berildi. Albatta, bu bejiz emas. Chunki o'shanda yurtimizdan 1 million 951 ming odam frontga yo'l olgan. Bu paytda O'zbekistonda 6,5 million kishi istiqomat qilganini inobatga olsak, respublika aholisining qariyb uchdan bir qismi urushga bevosita jalb qilingani ma'lum bo'ladi. Ular orasida to'y kechasidayoq kuyovlik to'niga qo'shib o'zining baxtini yechib ketganlar ham bor... Qirg'inbarot janglarda qanchadan qancha taqdir bivaqt zavolga yuz tutgan, ne-ne muhabbatlar tuproqqa ko'milgan...

Samarqandlik Aziza Narzullayeva hikoya qiladi:

– Bobomizning uylanganiga uch kun o'tgach urushga ketgan ekan. Uni kuzat-

gach xonasiga kirib ketgan kelin bir necha kungacha tashqariga chiqmabdi. Qaynona-qaynotasi, o'g'limiz ketganiga ko'nikolmayotgandir, mayli, yuragini bo'shatib olsin, deb indamabdi. Keyin ma'lum bo'lishicha, qiz boyaqish ayriyiqqa dosh berolmay, o'lib qolgan ekan...

Azizaning hikoyasini tinglayman-u, ko'z o'ngimda bobom Yo'ldosh Qilichevning hayoti gavdalanadi. U ham o'n to'qqiz yoshida o'n to'qqiz kunlik kelinchagini qoldirib, ikki akasi bilan urushga yo'l olgan. Ayovsiz janglarda ishtirok etgan. Stalingrad mudofaasi, Kiyev, Leningrad, Sevastopol va Berlindagi qirg'inbarotlarda jonini garovga qo'ygan. Yetti yil deganda uyga qaytganida esa ikki akasi bedarak ketgani, ota-onasi farzand dog'iga bardosh bera olmay qazo qilganidan xabar topadi. O'shanda bobom bunday kulfatga chidolmay, hovli bo'ylab zir yugurib, daraxtlarni quchoqlab yig'lagan ekan.

Rahmatli bobom televizorda urush haqidagi filmlarni tomosha qilishimizga izn bermasdi. "Urushni ko'rma, bolam. U haqida bilging kelsa, mening tanam va jonimdagi jarohatlarga qara", derdi. Darhaqiqat, bobomning oyoqlarida to'qqiz jarohat chandig'i bor edi. Bobomning mungli hikoyalari xotiranga qo'rg'oshinday quyilib qolgan.

– Men ham begona eillarda o'lib ketishimga bir bahya qolgan, qizim. Bir gal og'ir yaralanib, shinelimning bir uchi tuproq tagidan chiqib qolgan, askarlar shuni tortib ko'rib, meni qutqarib olishgan.

– Tuproqning tagiga qanday ko'milib qolgan, bobo? – deya savol berganman hech narsaga tushunmay.

– O'q-dori tashiydigan mashina haydar-dim. Fashistlar havodan bomba yog'dirganida ulovim portlab ketgan...

O'sha voqeaning kasriga uning quloqlari og'irlashib qolgan edi. Yo'ldosh bobomning ko'ksini umrining oxirigacha obro'li mukofotlar, qizil yulduz va... abadiy armonlar

bezadi. Keyingi vaqtlarda yurtimizda chop etilgan 35 jildli xotira kitobini quchoqlab yotardi doim. Chunki bu kitobda bedarak ketgan ikki akasining ismi-shariflari bitilgan edi...

Bobom haqida juda qisqa yozayman. Aslida urush tufayli uning yuragiga sanchilgan tig'ning jarohati chuqur, og'riqlari ulkan edi. Bugun farzandlarim bilan o'z uyimda xotirjam choy ichar ekanman, osuda va tinch hayotimizning qadriini o'ylayman.

Tinchlik – beg'ubor kabutar tumshug'idagi zaytun bargidek laziz bir ne'mat. Tinchlik – yaqinlarimiz bilan birgaligimiz, quvonch va shodligimiz. Bir-birimizga muhabbatimiz, mehr-oqibatimiz tinchlikdir. Mayda-chuyda tashvishlar tufayli oqayotgan ko'z yoshlarimiz, arzimmas muammolar girdobida chekayotgan fig'onlarimiz ham tinchlik, aslida. Italiyalik mashhur yozuvchi Janni Rodari: "Xo'rozqand uchun xarxasha qilayotgan bolaning ko'z yoshi shabadadan ham yengil. Ammo otasidan, onasidan judo bo'lgan go'dak ko'zidan tolgan yoshning zalvori butun yer kurrasidan ham og'irroq", deganida ming karra haq edi.

Urush girdobiga tushib qolgan o'kalarda otalar faryodi, onalar dodi, yetimlar nolasi ko'kka o'rlamoqda. Bunday oh-u zorlar bizning maishiy xarxashalarimizdan ming chandon zalvorli, azobi million karra og'riqli. Har tong bizni o'q ovozi, snaryadlar tovushi emas, qushlar sayrog'i uyg'otayotgan ekan, buning qadriga yetib, xotirjamligimizning har lahzasi uchun mas'ul bo'lmog'imiz zarur. Qonli jangohlarda bevaqt nobud bo'lgan minglab bobolarimiz, front ortida mislsiz azob-uqubatlariga giriftor etilgan momolarimiz haqqi-hurmati, bugungi bebaho tinchligimizning qadriga yetishimiz kerak. Bir vaqtlar bobom menga aytdi, men ham bolamga aytaman:

– Urushni ko'rma, bolam!

Muhayyo RUSTAM qizi

MAKTUB

DIL IZHORI

Azizlarim!

O'limizdagi katta yo'qotish kunlarida bizga hamdard bo'lib, ko'ngli so'rganlarim, barchangizdan Alloh rozi bo'lsin! Otamning sharafli, dolg'ali hayot yo'li, sermahsul ijodi xalqimiz tomonidan e'tirof etilayotgani yuragimizga dalda bo'lmoqda. Otamning ko'p yillik mehnatlari bez ketmaganligi, ular adabiyotga, davlatimizga siddiqdigan xizmat qilib, yuksak obro'-e'tiborga sazovor bo'lganliklari ayni shu kunlarda qayta-qayta tilga olinmoqda...

Bugun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Xayreddin Sultonov, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining o'rinbosari, general-mayor Hamdam Qarshiyev, Shimoliy-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni, general-mayor Farhod Sheramatov, O'zbekiston Oliy Majlisi Senati a'zosi, O'zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinbosari G'ayrat Majid, "Ma'naviy hayot" jurnali bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniy xodimi Eshqobil Shukur, taniqli shoirlar Zulfiya Mo'minova, Farog'at Xudoyqulova, yozuvchi G'afur Shermuhammad, mashhur kinorejissyor Hilol Nasimov, Xorazm viloyati hokimining o'rinbosari San'at Solayev, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent Umid Bekmuhammad xonadonimizga tashrif buyurib, ta'ziya bildirishdi.

Otamning ruhi poklariga bag'ishlab Sultonov tilovat qilindi. Prezident maslahatchisi Xayreddin Sultonov otam bilan bog'liq xotiralari haqida so'zlab, ilk tanishuvlari, otamning Respublika bosh vaziri o'rinbosari vazifasida ishlagan paytlaridagi, mamlakatimiz uchun oson kechmagan mustaqillikning dastlabki yillaridagi fidokorona mehnatlari, shoir, adib va dramaturg sifatida o'zbek adabiyotida tutgan o'rni borasida dil so'zlarini izhor etdi. Shuningdek, Mahmud Toir otam bilan kechgan uzoq yillik do'stlik xotiralari haqida mehr bilan gapirdi.

Zulfiya Mo'minova, Farog'at Xudoyqulovalar otam bilan bog'liq samimiy so'zlarni ko'zda yosh bilan tilga oldilar...

O'tajonim! Sizning mehnatlaringiz, xizmatlaringiz hali uzoq yillar tillardagi fidokorona o'tadi. Ezgulikka baxshida bo'lgan umringiz aslo nihoya bilmas. Sizning ikkinchi hayotingiz boshlandi! Izlaringiz obod, ruhlaringiz doim shod bo'lsin!

Sizni qattiq sevuvchi qizingiz
Sayyora SAMANDAROVA.

2024-yil 19-aprel.

"JAMIYATI XAYRIYA" DAN "EL-YURT UMIDI" GACHA

Boshlanishi 1-sahifada.

NATIJALAR – RAQAMLARDA

YUNESKOning statistika instituti ma'lumotlariga ko'ra, xorijda tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar soni yildan yilga oshib bormoqda. So'nggi 6 yil ichida "El-yurt umidi" jamg'armasi tomonidan 1900 nafarga yaqin stipendiatlar AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Kanada, Italiya, Ispaniya, Koreya va Xitoy kabi dunyoning qirqa yaqin davlatga yuborilgan.

Bugungi kunda ularning aksariyati xorijda egallagan ilg'or bilim va ko'nikmalarini mamlakatimiz iqtisodiyoti, ta'lim, fan, tibbiyot va davlat boshqaruvi yo'nalishlarida qo'llab kelmokda.

Ayni vaqtda 623 nafar stipendiya sohiblari AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Kanada, Italiya, Ispaniya, Koreya, Xitoy, Rossiya kabi davlatlardagi Oksford, London, Kembrij, Kolumbiya, Kornell universitetlari, London imperial kolleji singari global akademik reytingda 300 talik ro'yxatga kiruvchi oliy ta'lim muassasalariga va ilmiy markazlarga ta'lim olishmoqda.

Jamg'arma tomonidan xorijdagi 120 ga yaqin nufuzli universitet va ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan. Jumladan, Buyuk Britaniyaning York, Riding, Birmengem, Ekzeter universitetlari, AQShning Missuri, Arizona, Minnesota, Kolorado universitetlari, Ispaniyaning SEPIE va Malayziyaning EMGS kabi obro'li tashkilotlari bilan ikki tomonlama memorandumlar imzolaniib, stipendiatlar o'qish xarajatlarining 10-55 foizi miqdorida chegirma olishga erishilgan.

Yoshlarimizning xorijda bakalavriat, magistratura yoki doktoranturada o'qishi, viza olishi, chet davlatga borish-kelish yo'lakirasi, yashash, o'qitilish va transport to'lovlari, zarur o'quv va ilmiy adabiyotlarni xarid qilishi, tibbiy sug'urtasi bilan bog'liq va boshqa sarf-xarajatlar jamg'arma hisobidan qoplab berilmokda. Bir so'z bilan aytganda, ularni O'zbekistondan kuzatib qo'yishdan tortib, yurtimizga qaytib kelgunicha talab etiladigan har qanday chiqim davlat byudjetidan to'lab berilyapti.



– Dunyoda kechayotgan notinch ijtimoiy-siyosiy vaziyatga qaramasdan, O'zbekiston yoshlarining xorijda ta'lim olishi uchun davlat byudjetidan muntazam va barqaror mablag' ajratilayotgani xorijlik hamkorlarimiz tomonidan yuqori baholanmoqda, – deydi jamg'arma direktori o'rinbosari Javohir Ahmedov. – Ayniqsa, tanlov g'oliblari va ularning ota-onalari hurmatli Prezidentimizning xalqchil va adolatli siyosatidan minnatdor bo'lishmoqda.

TOG'GA CHIQTASANG,
DO'LANA QAYDA!

Shu o'rinda ayrimlarda sarflanayotgan shuncha mablag' hisobiga yurtimizda ham universitetlar ochsa bo'ladi-ku, yigit-qizlarning aynan chet elda o'qib kelishi shartmi, degan savol tug'iliishi mumkin. To'g'ri, zamonaviy texnologiyalar rivojlangan bugungi davrda barcha bilimlarni kompyuter, internet yordamida ham o'rganish mumkin. Lekin o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llab, hayotga tatbiq etish masalasi ham borligini unutmashimiz lozim. Masalan, har qanday yangi mahsulot dastlab tajriba laboratoriyalarida yaratiladi. Ya'ni innovatsiya mahsuloti bo'lgan texnologiyalarni o'z ko'zi bilan ko'rib, bevosita qo'llab ko'rish uchun yetarli malaka talab etiladi. Ana shu sifatga ega bo'lgan izlanuvchi o'z sohasida biror kashfiyot qila oladi.

Xorijda o'qib kelgan yoshlar vaqti kelib yurtimizga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ham faollik ko'rsatishi mumkin. Misol uchun, Birmengemda iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha saboq olib kelgan bir stipendiat kelgusida chet davlatlardagi obro'li kompaniya va firmalarda ishlayotgan sobiq kursdoshlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishga intilishi tabiiy hol.

Zamonaviy dunyoda taraqqiyot sur'ati shu darajada tezlashib ketdiki, bugungi ta'limning sifati ertaga eskirib, zamon talabidan ortda qolishi hech gap emas. Mana shunday sharoitda xorijda o'qib kelgan yoshlar vositasida jahondagi ilg'or yangilik va tajribalarni ta'lim tizimiga joriy qilish mumkin. Bunday ezgu maqsad yo'lida sarflangan har qanday mablag' izsiz ketmasligini anglash qiyin emas.

O'ZBEKISTON "ELCHILARI"

Ta'bir joiz bo'lsa, "El-yurt umidi" jamg'armasi stipendiatlari o'zlarini o'qiyotgan xorijiy ta'lim muassasalarida yurtimizning "elchilari" hisoblanadi. Demak, ular o'sha yerdagi talabalar, professor va o'qituvchilar hamda mahalliy xalq vakillariga Vatanimizning shonli tarixi, qadriyat va an'analari hamda bugungi zamonaviy yutuqlarini taqdim qilish ko'nikmasiga ham ega bo'lishi kerak. Bir so'z bilan ayt-

ganda, ular O'zbekistonning xorijdagi imoji targ'ibotchilardir. Shu bois jamg'arma stipendiatlari chet davlatlardagi elchixonalarimiz ko'magida "O'zbekiston kunlari", Navro'z, Mustaqillik singari umumxalq bayramlarini muntazam o'tkazib kelishmoqda. Muhimi, bu hol chet elga o'qishga o'tilgan yoshlarimizda milliy qadriyat va an'analarimizni chuqurroq o'rganish va ularni o'zгалarga taqdim qila olish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qilmoqda. "Bunday tadbirlar vositasida o'zga mamlakatlar vakillari bizning diyorimiz o'tmishda buyuk Renessanslarga beshik bo'lganidan, bugun odamlarning eng yuqori qadriga yetib, barcha xalqlar hamkorlikda o'zlarining o'zlariga xizmat qilishga qaratiladi.

Stipendiya g'oliblariga chet elga jo'nab ketishi arafasida maxsus kurs o'tiladi. Ushbu mashg'ulotlarda Oliy Majlis Senati raisi, deputatlar, turli vazirlik va idoralar rahbarlari bunday yigit-qizlarga mamlakatimizning tarixi, iqtisodiy imkoniyatlari, turizm salohiyati, milliy an'analarimiz haqida batafsil ma'lumot va tushunchalar berishadi. Bu kabi loyihalarning bilim va ma'naviyatini yanada boyitish, milliy g'ururini kuchaytirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

TANLOV QANDAY O'TKAZILADI?

Bugungi kunda nafaqat jamg'armaning nomi o'zgartirildi, balki uning zimmasiga qo'yilgan vazifalar, bu boradagi tanlov shartlari ham tubdan takomillashtirilmoqda. Avvalo, tanlov tashkil etilayotgan paytda barcha vazirlik va tashkilotlarning malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoji o'rganiladi. Shundan kelib chiqib, sohalar kesimida to'rt yuzga yaqin mutaxassislik doirasida kvotalar e'lon qilinadi. O'tgan yili 500 o'rinli kvota e'lon qilingan bo'lsa, da'vogarlardan atigi 274 nafari saralab olingan. Hozirgi paytda ularning 223 nafari xorijda o'qishni boshlagan. Yana bir guruh yigit-qizlar shu yilning kuzida chet elarga jo'nab ketishadi.

Stipendiya da'vogarlar bir qator mezonlar asosida saralanadi. Birinchi navbatda da'vogarlar dunyo bo'yicha eng nufuzli 300 talik ro'yxatga kiradigan oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirganligi haqidagi ma'lumotnomaga ega bo'lishi lozim. Shundan so'ng ular "El-yurt umidi" jamg'armasi stipendiyasini olish uchun onlayn shaklda hujjat topshirishi mumkin. Dastlabki bosqichda xalqaro standartlar asosida o'zbek tilida o'tkaziladigan test sinovlarida yoshlarning o'zi tanlagan soha bo'yicha bilimlari, fikrlash, tahlil qilish qobiliyati va boshqa bir qator masalalarga oydinlik kiritiladi. Asosiy bosqich hisoblangan suhbat davomida talabanchi xorijga chiqishdan ko'zlagan maqsadi, o'zi tanlagan sohaning mamlakatimiz taraqqiyoti uchun qay darajada muhim ekanligi, hamda u tanlagan xorijiy universitetning nufuzi va imkoniyatlariga e'tibor qaratiladi.

Yana bir e'tibori jihat, malakali mutaxassislar tomonidan o'tkaziladigan suhbat davomida nomzodning ma'naviy qiyofasi, dunyoqarashi, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotidan qay darajada xabardorligi ham aniqlanadi.

SIZNI VATAN KUTADI!

Ma'lumki, Prezidentimiz bundan bir necha yil burun AQShga amaliy tashrifi chog'ida ushbu mamlakatda yashayotgan va ishlayotgan bir guruh vatandoshlarimiz, xususan, "El-yurt umidi" jamg'ar-

masi stipendiatlari bilan ham uchrashgan edi. Ana shu muloqot chog'ida davlatimiz rahbari: "Bugun bu yerda yashayotgan yurtidoshlarimiz kuchli yatanparvarlik tuyg'usi va O'zbekistonning rivojiga munosib hissa qo'shish ishtiyoqi bilan yashayotganini ko'rib juda xursand bo'ldim. Barchangizni O'zbekistonda kutib qolamiz", degan edi.

Biz "El-yurt umidi" jamg'armasi faoliyati bilan tanishish jarayonida "O'qishni tamomlagan yoshlarimiz xorijiy yurtlarda qolib ketmayptimkin?" degan savolga ham javob qildirdik. Axir, hamma joyda ham salohiyatli kadrlarga ehtiyoj yuqori. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda bunday mutaxassislariga mo'ayyid maosh va qulay sharoitlar taklif qilinishidan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Javohir Ahmedovning aytishicha, avvallari bunday hoyalatlar tez-tez kuzatilgan bo'lsa-da, biroq oxirgi yillarda chetda ta'lim olgan barcha yoshlar yurtimizga qaytib kelib, o'z sohalarini bo'yicha faoliyat ko'rsatmoqda. Qolaversa, jamg'arma bilan ular o'rtasida tuziladigan shartnomaga ham ana shunday talab kiritilgan.

Manbalarda keltirilishicha, bundan bir asr burun jadidlar tashabbusi bilan chet elga o'qishga jo'nab ketayotgan mahalliy yoshlar Samarqand shahridagi Sohibqiron Amir Temur maqbarasi poyida kelgusida albatta Vatanga qaytib kelib, uning taraqqiyoti yo'lida siddiqdigan xizmat qilishga o'tin chishgan. Afsuski, mash'um qatag'onlar tufayli ularning bu maqsadi sarobga aylandi. Bugun istiqlolimiz sharofati bilan dunyodagi mashhur oliy o'quv yurtlarida tahsil olish uchun yo'lga o'tlanayotgan zukko va shijoatli farzandlarimiz ana shu fidoyi insonlarning ham ezgu orzularini ro'yobga chiqarish uchun mas'ul ekanligini unutmasligi lozim. Atqoli shoirimiz G'afur G'ulomning "Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi!" degan da'vatkor satri aynan ularga qaratilgan. Yuragida bir olam orzu va maqsadlar bilan katta yo'lga chog'lanib turgan bunday yoshlar Prezidentimiz yaratib bergan imkoniyatni qadrlab, el-yurt umidini oqlashiga ishonamiz.

Muyassar IBROHIMOVA



BAXT EL BILAN BIRGA TO'KIS



Boshlanishi 1-sahifada.

Ikki yil ichida Zebo Yunusobodagi tugal-lanmay qolgan hovli-joyini ta'mirladi, bank-dan kredit olib, xususiy bog'chani ham ishga tushirdi. Kunlarning birida Britaniya maktabida ishlagan uch nafar o'qituvchi uning oldiga ish so'rab kelib qolishdi. Zebo bu tashrifdan mam-nun bo'lib, xorijiy maktabda tajriba orttirgan, dunyo ko'rgan ziyolilar bilan suhbatlashib, ularning fikr-mulohaza va takliflariga diqqat bilan quloq tutdi. O'shanda uning ko'nglida xorij-da keng qo'llanilayotgan erkin saboq uslubini milliy qadriyatlar bilan moslashtirish fikri tug'il-di. Shu tariqa u o'zbek-britan ta'lim yo'nalishini tatbiq etishga kirishdi.

Bog'chada bolalarning har bir predmetni o'z ko'zi bilan ko'rib, qo'li bilan ushlab orqa-

li o'rganishiga sharoit yaratildi. Bu amaliyot amalda yaxshi natija berdi. Bolalaridagi fikriy qamrov doirasi nisbatan tezroq kengayayot-ganini sezgan ota-onalar tadbirkordan bog'chani maktabga aylantirishni iltimos qila boshlashdi. Shundog'am yangilikka o'ch bo'l-gan Zeboning ham ko'nglida xususiy maktab ochish istagi paydo bo'lgan edi. Shu bois u uzoq yillar oliy ta'lim muassasasida prorektor bo'lib ishlab katta tajriba orttirgan otasi Rixsi-boy Yusupovga maslahat soldi. Qizining yosh avlodni dunyo miqyosida bilimli qilishga jiddu jahd bilan kirishganidan quvongan ota uning boshlayotgan ishiga oq fотиha berish barobar-da bu borada yaxshi natijaga erishish uchun nimalarga e'tibor qaratishi kerakligini batafsil tushuntirdi.

Zebo ertasi kunioyq ta'lim boshqarmasiga yo'l oldi. Faoliyat koeffitsiyenti keskin pasayib ketgan ta'lim maskanlarining biridan xususiy maktab tashkil qilish uchun joy so'radi. Tez orada unga 800 o'rinni bo'lishiga qaramay, atigi 250 nafar o'quvchi ta'lim olayotgan 80-umum-ta'lim maktabining bir qismini ijaraga berishdi. Bu yerda ahvol ancha abgor edi. Zebo bank-dan 500 ming dollar kredit olib, direktor bilan kelishgan holda birinchi qavatni to'liq ta'mirdan chiqardi. Binoni ikkiga bo'lib, o'rtasini yoptirdi.

Bir binoda ikki maktab faoliyat ko'rsatsa ham bo'lar ekan, — deya kulib eslaydi u o'sha kunlarni. — Birgalikda loyihalari qilaylik, tadbir-lar o'tkazaylik deb yonib-kuyganimning foyda-si bo'lmadi. 80-maktabning ko'rsatkichlari past bo'lgani uchunmi, har yili direktori almashardi. Olti yil davomida bir binoning ikki eshigidan ikki maktab o'quvchilari kirib-chiqib o'qiyver-di. Men ularning o'quvchilarini ham har xil musobaqalarga jalb qilishga intilardim. Biroq hamkasblarimiz bunga unchalik qiziqishmadi. Shundan so'ng yangi maktab binosini qurishim kerak, degan qat'iy qarorga keldim.

Zebo yana oilasiga maslahat soldi. Tadbirkor ukasi Oybek xususiy mulki bo'lgan 900 kvad-rat metrluk yerni unga sovg'a qildi. Yaqinlari-ning qo'llab-quvvatlashi Zeboga dalda berdi. U qo'lidagi mablag'i yetmasligini yaxshi bilsa-da, mamlakatimizda tadbirkorlikka keng yo'l berilayotganidan ruhanib, tez orada ishga kirishdi.

U Toshkent arxitektura-qurilish institutini tugat-gani bois qurilajak maktab binosining tarhini taxminan chizib, xomaki hisob-kitobini qildi.

Ish qurilish maydonining tuproq tarkibini o'rganishdan boshlandi. Joyning seysmik da-rajasi aniqlanib, shu asosda yarim metr enlik-da poydevor quyishga qaror qilindi.

— Ana shunda "o'zinni zo'rishga berib qo'y"-ganimni bildim, — deydi tadbirkor ayol. — Poyde-

ortgan bu shirin tashvishlar meni o'qib-o'rgan-ishga, izlanishga majbur qildi.

Maktab qurish uchun uning mo'ljalidagidan ikki barobar ko'proq sarmoya zarur bo'ldi. Qurilish firmalari bilan kelishuvlar va sarf-xa-rajatlar o'rtasidagi tafovutlar, ish boshqaruvchi etib tayinlangan yaqin odamining ko'rsatgan "hunarlari" qiynadi uni. Shunday murakkab sharoitda Prezidentimiz tashabbusi bilan rah-

Maktab qoshida ota-onalar murojaatlari bilan shug'ullanuvchi alohida guruh tashkil etilgan. Bu ko'ngilli guruh zimmasiga o'qituvchilarni darsdan chalg'itib, bezovta qiladigan har qan-day masala bilan shug'ullanish vazifasi yuk-latilgan. O'qituvchilar ortiqcha gap-so'zlardan, hattoki hisobot-u yozuv-chizuvlardan ham ozod qilingan.

Zebo Mo'minova yaqinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishtirok etgan Xalq deputat-lari Toshkent shahar kengashi sessiyasida so'zga chiqqanida xususiy maktab binosini qurish bilan bog'liq jarayonlar haqida gap-rib, oliy o'quv yurtida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratish zarurligini ta'kid-la-di. "Boshidan o'tmaganning qoshidan o'tma", deydi xalqimiz. O'sha tarixiy uchrashuvda uning dilidan tiliga ko'chgan samimiy iqrori, hayajonli so'zlari yurt rahbariga ham, poytax-timiz faollariga ham birdek manzur bo'ldi.

Aslida Zebo Mo'minova mo'ayyida kel-tiradigan tadbirkorlik korxonasi tashkil qilishi ham mumkin edi. Lekin nega u aynan ta'lim yo'nalishini tanladi? Buning javobi oddiy. Avva-lo, tadbirkorlik ham, ilm-ma'rifati yo'li ham unga begona emas. Aniqrog'i, bu ikki soha unga ota-bobalaridan meros. Zeboning bobalaridan biri murattab qori, ikkinchisi esa katta tadbir-kor bo'lgan. Qolaversa, u jonining rohatini bilib, dunyoning eng go'zal go'shalarida sayr-u sayohatda umr kechirishi ham mumkin edi. Lekin har bir insonning o'z tarbiyasi va sajjasi-dan kelib chiqadigan hayotiy qarashlari bo'ladi. Zebo rohat-farog'atni jamiyatdan ayro holda tasavvur qilolmaydi. Garchi qilayotgan ishlari tadbirkorlik deb atalsa-da, bundan ko'zlagan maqsadi faqat daromad orttirish emas. U ke-lajak avlodimiz vakillarini har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalashni maqsad qilgan.

Xullas, zamonodoshimiz o'zining ezgu mas-lagi, halol mehnati, zakovati va qat'iyati bilan ko'pchilikning e'tiboriga tushdi, mehr qozondi, hayotidan baxt topdi. Zebo kabilarga har qan-cha havas qilsa, ular sha'niga olqishlar aytilsa arziydi.

Muhayyo PIRNAFASOVA

MULOHAZA

Hozir yer yuzida kuchli mafkuraviy zid-diyatlar va madaniyatlararo to'qnashuvlar yuz berayotgani hech kimga sir emas. Globallashuv davrida deyarli barcha mamlakatlar mafkuraviy, ijtimoiy tahdid-lar bosimini his qilmoqda. Bugungi kun voqe-ligi kelajakda insoniyat duch kelishi mumkin bo'lgan murakkab ijtimoiy va mafkuraviy muammolarning debochasi bo'lishi mumkinligi tobora ayon bo'lib bormoqda. Shunday murakkab sharoitda mafkuraviy va g'oyaviy tahdidlarga qarshi ma'naviy immunitetni mustahkamlash voyaga yetayotgan yosh avlod vakillarini-ning ertaga barqaror va xavfsiz jamiyatda yashashining eng muhim kafolati bo'lib qolmoqda.

Albatta, bu muhim masala avvalo, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning tizimli va samarali yo'lga qo'yilishiga bog'liq. Ayniqsa, har to-monlama yetuk, vatanparvar yoshlarni kamol-ga yetkazishga jiddiy e'tibor qaratish barqaror kelajakni ta'minlashning muhim shartlaridan hisoblanadi.

Mashhur yunon faylasufi Aristotelning "Mam-lakat taqdiri yoshlar tarbiyasi hal qiladi" degan so'zlari zamirida katta ma'no mujassam. Shu bois qadimgi davrlardayoq taniqli mutafakkirlar vatanparvarlik tarbiyasiga bag'ishlangan ko'p-lab asarlar bitishgan.

Yurtimiz tarixiga nazar solsak, donishmand ajdodlarimiz ham Vatan va xalq taqdiri uchun ko'raytib, bu yo'lga ibrat va fidoyilik namunasi-ni ko'rsatganiga guvoh bo'lamiz. Ma'naviy-axloqiy tarbiyani o'zlariga mayoq deb bilgan ajdodlari-miz o'zlarining ilmiy-ma'rifiy asarlarida Vatanni sevish, ota-onaga ehtirom ko'rsatish, oilaviy qadriyatlarini asrab-avaylash kabi g'oyalarni il-gari surishgan. Shu bois bugun vatanparvarlik tarbiyasida ularning merosiga e'tibor qaratilsa, har jihatdan o'rinni bo'ladi.

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bot-bot yoshlarni ilmini qadrlash va unga intil-ishga da'vat qilayotgani ham bejiz emas. Dav-latimiz rahbarining "...o'qigan, zamonaviy ilm va hunarlarni puxta egallagan, yosh avlodini ayni shu ruhda tarbiyalagan xalqlar, davlatlar jadal rivojlanmoqda", degan so'zlari ham ayni paytda ta'limning ahamiyati qay darajada yuqori ekan-idan dalolat beradi.

Jahondagi ilg'or jamiyatlar tajribasiga nazar solinsa, ular birinchi navbatda ta'lim va tarbiya-ni yuksaltirish orqali barqarorlik va taraqqiyot-ga erishgani ayon bo'ladi. Bugun insoniyatni o'ylantirayotgan siyosiy, ijtimoiy va mafkuraviy



tahdidlarning ko'lami va ta'sir doirasi hudud va millat tanlamasligi bilan ajralib turadi. Mazkur xavf-xatarlar birinchi galda yoshlarni o'z girdo-biga tortayotgani, ayniqsa, tashvishlidir. Bun-day vaziyatda yoshlarning axloqiy tarbiyasini o'nglash orqali ma'naviy tanazzulning oldini olish mumkin.

Taniqli fransuz mutafakkiri Jan Jak Russo "Saxovatning eng buyugi — Vatanga bo'lgan muhabbatdir", degan edi. Vatanni chin dildan sevish, uning buyukligini to'liq idrok etish uchun inson ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishi lozim. Aynan shuning uchun ham yurtimizda yosh-larni vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy qadri-yatlar ruhida tarbiyalash va ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Hamma gap ushbu hayo-tiy tamoyilning tizimli ravishda amalga oshi-rilishiga bog'liq. Bu ishlar milliy o'zligimizga tayangan holda, O'zbekistonda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar hamda jahondagi ilg'or tajribalar bilan uyg'un ravishda olib boril-sa, natijasi yaxshi bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, bugungi yoshlar ta'lim va axborot olishning eng zamonaviy imkoniyatlaridan foydalanmoqda. Biroq tanganing orqa tomoni bo'lganidek, bunday sharoitda ularning turli xil begona g'oyalari ta'siriga tushib qolishi ehtimoli yuqori ekanini ham inkor qilib bo'lmay-di. Chunki bunday zararli tushunchalar glo-bal axborot-kommunikatsiya tarmoqlari orqali ommaviy ongga kuchli axborot va ruhiy bosim o'tkazmoqda. Bu sharoitda farzandlarimizda turli manbalar orqali uzatilayotgan axborotlar-

vor qurishning o'ziga ikki oy vaqt va 400 million so'm mablag' ketdi. Vaqtida arxitektura sohasi-da yaxshi baholarga o'qigan bo'lsam-da, bu sohada amaliy bilimim yetarli emas ekan. Qurilish ishlarida hali ko'p narsalarni bilmasligim ayon bo'lib qoldi. Nega institutda bizni qurilish maydonlariga olib borishmagan, nima uchun binolarga terilayotgan g'ishtni sindirib, uning tarkibini o'rgatishmagan, degan savollar meni qiynardi. Demak, nazariy bilimdan tashqari amaliy ko'nikmaga ham ega bo'lmasa, bo'lajak mutaxassis sohasiga chuqur kirolmas ekan, degan xulosaga keldim. O'z boshimga o'zim

bar xodimlar va xalq o'rtasidagi byurokratik to'siqlarning olib tashlangani Zeboning joniga ora kirdi. "Mikrokreditbank" rahbarlari unga alohida e'tibor ko'rsatib, barcha imtiyozli kredit liniyalarini erinmasdan izohlab berishdi va eng qulay variantlarni taklif etdi. Qahramonimiz bankdan olgan katta miqdordagi kredit evazi-ga boshlagan ishini oxiriga yetkazdi.

Nihoyat, joriy o'quv yilining boshida 378 o'rinni maktab binosi ishga tushirildi. Zebo maqsadiga erishdi. Ayni paytda bu yerda 170 nafar o'quvchiga 70 nafardan oshiq tajribali ustozlar Britaniya uslubida ta'lim bermoqda.

VATANPARVAR AVLOD

Uni qanday tarbiyalaymiz?

to'siq bo'lishi mumkin. Ertangi kunimiz egalari-ni ongi va qalbida sog'lom ma'naviy dunyo-qarashni shakllantirmasdan turib, mutaraqqiy jamiyat barpo etish imkonsizdir.

Demak, bugun yoshlarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash barchaning — davlat, millat, jamiyat, mahalla-niing umumiy vazifasiga aylanmogi kerak. Shu orqali ularni yurtimiz ravnaqi, xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash borasida shaxsiy mas'uliyat hissini shakllantirish lozim. Bu jarayonda yigit-qizlarimizning O'zbekiston rivojiga xizmat qiladigan g'oya va tashabbuslari, innovatsion yondashuvlari hamda takliflariga e'tibor qaratib, ularni qo'llab-quvvatlashning ahamiyati beqiyos.

Avvalo, yoshlarni vatanparvar insonlar sifatida kamol toptirish, ularni sog'lom dunyoqarashni shakllantirish, milliy g'urur, xalq manfaatlarini himoya qilish tuyg'ularini kuchaytirishni umum-milliy harakatga aylantirish lozim. Umumta'lim muassasalari va ma'naviyat maskanlarining bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi yagona huquqiy baza yaratish zarur. Shuningdek, yosh-larni ana shunday ruhda tarbiyalashga mas'ul bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash va ular-niing doimiy malakasini oshirib borish imkonini beradigan samarali tizim yaratish kerak. Ta'lim muassasalari, ma'naviyat markazlari, davlat va jamoat tashkilotlarining moddiy-texnika baza-sini zamonaviy talab va standartlar asosida shakllantirishning ham ahamiyati beqiyos.

O'z navbatida, vatanparvarlik tarbiyasiga oid innovatsion yondashuvlar, ilg'or o'quv-uslubiy qo'llanma va ishlanmalar, adabiyotlar ham-da axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan targ'ibot materiallari, doimiy yangi-lab boriladigan internet kontentlarini yaratishga ham jiddiy ahamiyat qaratilishi zarur. Zamonaviy media maydonida azaliy qadriyatlarimiz, ilmiy-ma'rifiy merosimiz namunalarini hamda milliy ma'naviyatimiz yutuqlarini keng yoritib borish ham ijobiy natijalar berishi, shubhasiz.

Yoshlarda mustaqil fikrlash, mas'uliyat, bag'r Kensingtonlik, tadbirkorlik, barcha sohalarda in-novatsion yondashuvga intilish, mehnatsevarlik singari ko'nikmalarni shakllantirishning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish haqi-da ham jiddiy bosh qotirish lozim. Ular ongida yurtimizda kechayotgan islohotlarga daxldorlik,

davlat ramzlari, buyuk tarixiy shaxslar va za-mon qahramoni kabi ijtimoiy atributlarga nisba-tan yuksak ehtirom hissini shakllantirish ham vatanparvarlik tarbiyasining eng muhim jihatlari sirasiga kiradi. Shuningdek, xotin-qizlar, uyush-magan yoshlar, xorijdagi vatandoshlar, iqtidorli yigit-qizlar bilan ishlashda ega ta'sirchan, samarali usullardan unumli foydalanish joiz.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha samarali tizimni yo'lga qo'yish davlat va jamiyat barqarorligi va milliy xavfsizlikning muhim shartlaridan hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, kindik qoni tomgan muqaddas zamin-ni chin dildan sevardigan, har qanday vaziyatda ham uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylashga tayyor bo'lgan avlodni voyaga yetkazish bar-chamizdan juda katta mas'uliyat va safarbarlik-ni talab qiladi.

Bunday vazifalarni amalga oshirish orqali bilimdon va shijoatli avlodni tarbiyalash mumkin, kelgusida ularning innovatsion g'oyalari dav-lat va jamiyat boshqaruvining turli sohalariga jo-riy qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Shuningdek, vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha ilg'or xorijiy taj-ribalarni o'rganish maqsadida chet davlatlarda-gi tegishli muassasa va uyushmalar, xalqaro aql markazlari bilan hamkorliklarni yo'lga qo'yish ham yaxshi samara berishi shubhasiz.

Atoqli ma'rifatchi parvar alloma Abdurauf Fitrat-niing "Bu dunyo — kurash maydonidir. Bu kurashning quroli sog'lom jism-u tan, o'tkir aql va yaxshi xulqdir", degan ibratli so'zlari bugun-gi kun voqeeligiga ham to'liq mos keladi. Ayni vaqtda Yangi O'zbekistonni barpo etish uchun chuqur bilim va malakaga ega, axloqan yetuk yoshlarga ehtiyoj juda yuqori. Zotan, yoshlikni shiddat bilan oqayotgan tizginsiz daryoga qi-yoslash mumkin. U o'z holiga tashlab qo'yilsa, o'zanidan toshib chiqib, atrof-javonibni vayron qilishi, agar to'g'ri yo'naltirilsa, borgan joyini obod etib, bog'u bo'stonga aylantirishi mumkin. Shu ma'noda, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilat-lar sohibi bo'lgan chinakam vatanparvar yosh-larni kamol toptirishning ahamiyati beqiyosdir.

Sarvarjon G'afurov,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar
instituti bo'lim boshlig'i,
siyosiy fanlar doktori,
professor



Boshlanishi 1-sahifada.

Baxt va bahorning dono kuychisi, ulug' ustozimiz Oshiq Ayoq – Ibroyim Yusupov haqiqatan ham benazir shoir edi. Ustoz o'zining ilk she'riy to'plamini bejiz "Baxt lirikasi" (1955) deb atamagan. Chunki o'sha damlarda zahmatkash xalqimizning yorug' kunlarga bo'lgan umidlari kurtak yoza boshlagan edi. Baxtga bo'lgan intilish qoraqalpoqning uch ulug' kuychisi – Kunxo'ja, Ajiniyoz, Berdaq lirikasining qaymog'i edi. Bu an'anani shoirning zamondosh ustozlari Abboz Dobilov, Sodiq Nurimbetovlar izchil davom ettirayotgan edilar. Oshiq Ayoq ulardan ibrat olib, ko'plab xalqchil she'rlar yozdi. Zamonaaviy qoraqalpoq poeziyasida yorqin sahifa ochgan "Kunchiqar yo'lovchisiga" (1959) to'plami bunga to'la dalil bo'la oladi. 1960-yili shoir she'rlaridan bir qanchasi o'zbek tiliga tarjima qilinib, "Buloqlar qaynaydi" nomi bilan nozik didli o'qirmanlarga yetib bordi. 1962-yili tarjimalar yanada to'ldirilib, "Oltin qirg'oq" nomi bilan nashr etildi. Bu kitoblarni o'qigan akademik G'afur G'ulom navqiron ijodkorni qizg'in qutlab:

– Ko'ngilda sen tarannum etgan joylarni ko'rish istagi paydo bo'ldi! – degan ekan. Shoir ulug' ustozni Nukusga taklif qilib, aeroportda oqsoqol adiblar Sodiq Nurimbetov, Jo'lmirza Oymirzayevlar bilan birga kutib oladi. Milliy an'analarga ko'ra mehmon qiladi. Aeroportda kuzatayotganida akademik shoir shu yerdagi kitob do'konidan H.H.Niyoziy kulliyotini xarid qilib:

– "Senga Hamza kitobini tortiq qilay, Men – G'afurmen, sen – Ibray!" deb dastxat yozib beradi. Samolyotlarga qarab:
– Bular uzoq-uzoqlarga ucha oladi. Biroq sening kitoblaring ulardan ham olislariga parvoz qilsin! – deb duo beradi.

Akademik shoir haq ekan: shoir she'rlari "Меридианы сердца" nomi bilan rus, "Тала қыялдары" nomi bilan qirg'iz, "Erikler gullende" nomi bilan turkman kitobxon-



lariga tortiq qilindi. Asarlari boshqa qit'alarida ham bosildi. Shoir A.Navoiy, A.Pushkin, U.Shekspir, T.Shevchenko, Abay, A.To'qay asarlarini o'z ona tiliga mahorat bilan tarjima qildi.

Shoir she'rlari xalq tili va xalq dili bilan bir: *Kiyiklar suv ichar soydan, G'oz, o'rdak ko'ldan suv ichar. Odanning-chi, ko'ngli qaydan, Ko'ngil ko'ngildan suv ichar...*

Ha, "Ko'ngil ko'ngildan suv ichar" (1971) to'plami shoir ijodida yangi bekat bo'ldi. "Bekligingni buzma sen" (1995), "Hayot, senga oshiqman" (1999), "Har kimning o'z za-

moni bor" (2004) she'riy to'plamlari, "Sahro orzulari" (1966), "To'maris" (1974) dostonlari, "Umr bek laqqi" (1966), "Mangu buloq" (1986) dramalari (kitoblari va asarlarining bir qismining sanab o'tdik) haqida ham shunday deya olamiz. Ular hozirgi zamon qoraqalpoq adabiyotining oltin xazinasidan o'rin oldi. O'zbek tilida chop etilgan "Sahro orzulari" (1967), "Cho'l to'rg'ayi" (1972) "Rahmat, senga zamonim" (1979), "Qorator" (1988) kitoblari millionlab she'r muxlisini mehri qozondi.

Ko'p yillar davomida atoqli shoir bilan bir kitobxon, navqiron zamondosh maqomida

muloqot qilib keldik. Uning yaqin do'stlarini tanidik. Ibroyim og'a o'nlab hamkasblari bilan birodar edi. Ammo u zamonamizning eng zabardast so'z zargarlaridan Qaysin Quliyev, Mustay Karim, Dovud Qo'g'ultinov, Rasul Hamzatov, Chingiz Aytmatov bilan uzoq yillar ijodiy davra tuzdi. Bu davrada vaqti-vaqti bilan Qoltoy Muhammadjonov, Mixail Dudin, Shukrullo, Suyunboy Eraliyev, Odil Yoqubov, Alim Keshokov, Erkin Vohidov, O'lgas Sulaymonov, Abdulla Oripov ham ishtirok etardi. Ibroyim og'a orqali ulug' Rasul Hamzatov bilan tanishdik. Shu bois yaqinda o'zbek va rus tillarida "Dog'iston donishmandi. Дагестанский мудрец" kitobini chiqardik. Ularning do'stligi metindan ham mustahkam edi.

Eng yaqin do'sti Rasul Hamzatov olamdan o'tganida dunyo ko'zlariga tor bo'lib qoldi:

Kavkazning eng baland cho'qqilari ham Pasayib qolgandek bugun qarasang. Patimatsiz qolgan bu yolg'onchini Endi sen ham tashlab ketib borasan...

Ular qirg'yil mobaynida oradan qil o'tmas do'st bo'lishdi. Ular Oshiq Ayoqning o'z iborasi bilan aytisak, "insoniyat or-nomusining jarchilari" edilar. Ibroyim ustoz butun vujudi bilan ijodga berildi. Birinchi qoraqalpoq baletiga libretto bitdi. Eng muhimi O'zbekistonga o'ng qo'lini uzatgan, bu birdamlikdan baxt-u iqbol topgan Qoraqalpog'iston madhiyasi matnini yozdi, xalq qalbiga hamohang so'zlardan mar-jondek terdi:

Jayhun jag'asinda o'sgan boyterak, Tupi bir, shoxlari ming bo'lur demak. Sen shunday soyal, quyoshli elsan, Tinchlik va iqbol sendagi tilak...

Markaziy Osiyoning eng iqtidorli bastakorlaridan biri, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi Najmatdin Muhammadinonovning maftunkor musiqasi madhiyaga uzukka qo'yilgan zumrad qoshdek yarashdi. Shoir ijodi haqida akademiklardan M.Nurmuhammadov, M.Qo'shchonov, J.Bozorboev, taniqli munaqqid, O'zbekiston Qahramoni I.G'afurov, fan doktorlari va nomzodlaridan S.Ahmedov, K.Quramboev, S.Bahodirova, K.Allambergenov, T.Mambetniyozov, Z.Bekberganova va boshqalar mag'zi to'q maqolalar yozdilar. Biz o'zbek tilida "Mening yigit vaqtim, sening qiz vaqtim", "Sahro so'firo'rg'ayi" nomli ikki kitobini chop ettirdik. Ustozga hayotligi chog'ida bergan va'damizning ustidan chiqdik.

Umr qisqa, manzil uzoq, Yillar bizdan ketar yiroq. Mangu qo'shiq kabi yangroq, Esar Jayhun shamollari...

Ibroyim og'a olamdan o'tganida uning tobuti tepasida tengdoshi, yana bir ulug' ustozimiz To'lepbergen Qaipbergenov "Jon do'stimdan ayrildim" deb faryod chekdi. Bu ikki ulug' so'z san'atkorlari eng avvalo xalqlar orasidagi birodarlikni mustahkamlovchi oltin ko'priki bo'ldilar. Buning ajri ham bor ekan: ikkovining ham asarlari Yangi O'zbekistonda chop etilgan "Turkiy adabiyotlar durdonalari" antologiyasiga alohida jildlar sifatida kirdi. Bugungi jahon adabiyotida ularning o'z yorqin sahifalari borligiga shak-shubha yo'q. Tug'ishganlik tuyg'usi, yurtga ehtirom, insonga mehr Oshiq Ayoq – Ibroyim Yusupov ijodining qaymog'i edi:

Erk quyoshi ochgandir yuz, Baxtimizni qilib ko'z-ko'z, Ichi kuygan yalasin tuz, Umrimizdir bog'-u bo'ston, Sog' bo'l, onam O'zbekiston!

Yangiboy QO'CHQOROV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

Ibroyim YUSUPOV,
O'zbekiston Qahramoni

QALBIM JAYHUN BILAN HAMNAFAS

MENING YIGIT VAQTIM, SENING QIZ VAQTING

B...ga

ToshDU desam, darhol tushadi esga, Mening yigit vaqtim, sening qiz vaqtim. To'g'ri samolyotdan tushdim-da, kechda Yotoq joyingizning eshigin qoqdim.

Nukusda ekanda sen meni kunda, Hatto soat sayin sog'inar eding. Bu gal sen ko'rding-u meni Toshkentda, Ma'yus miyiq tortib "senmisan", deding.

Gulshanda ochilgan bir toza gulday, Chiroyingga chiroq shog'igan ekansan. Quvonchimni qay tarz aytishni bilmay, Yutib, termulib boqar edim man.

Ketdik go'l ushlabib ko'chani bo'ylab, Unsiz kelayapmiz, Esnab qo'yasan. "Jonim, aytgil, kelayapsan ne o'ylab? Erta uchrashamiz qayerda, qachon?!"

"Erta qo'lim tegmas... Imtixonim bor...", Deding o'ynab yo'g'on buraming bilan. Navoiy teatri xalq bilan bisyor, Sen kirgach u butkul yashnab ketdi sha'n.

Zar ko'ylak cho'g' sochib yonar ustingda, Sen aytding "Afv et, tobim yo'q", deding. Va marmar zinadan epchil tushding-da, Ketding... Men sen uchun begona edim.

So'nggi "Kazbek" imni tutatib olib, Uzoq tentiradim anhor bo'yida. Majnunol shoxlarni suvlarga solib, Sening sochlaringni solar o'yimga...

ToshDU desam, hamon tushadi esga, Mening yigit vaqtim, sening qiz vaqtim... Senga yana qaytib ozor bermasga, Bel bog'lab, jonimni o'tlarga yoqdim.

Ochiq derazalar imlardi "kel" deb, Bog'lar derdi "qayg'u chekma, yigitim". Yurakni tinardi "Tanovar" yig'lab, Shamollar izg'irdi xazonni titib...

Endi men Toshkentga borganda doim, Senga ko'rinasga tirishar edim. Bir kuni duch keldik, nogoh muloyim, "Rostdan bu senmisan, senmisan", deding.

Ayni sahar chog'da ochilgan guldek, Qiz bo'lib jur'atga to'lgan ekansan. Hind qo'liga tushgan asrandi fildek, Unsiz yetagingda ketaverdim man.

Tovusday tovlangan o'zbek qizlari, Do'stlik ehtiromin ko'rsatib shu on Eski do'stlarimdek kulishib bari, Yozdi oldimga talabalik dasturxon.

ToshDU – bilim bog'i, yoshlar do'stligi, Qancha ko'ngillarga nur berar yog'dung! ToshDU ming-ming qiz, yigitlar yoshligi, Mening yigit vaqtim, sening qiz vaqtim...

QORAQALPOQNI KO'P MAQTAMA KO'ZIMCHA

Bir xalq ko'rdim, yuragi qovurg'asidan ko'rinar.
Mixail Lukonin

Qoraqalpoqni ko'p maqtama ko'zimcha, Qarmogga tez tushadigan baliqman. Har kimning bor o'z joyi o'zicha, Cho'rtanimdai sal anqovroq xalqman.

Bu kishini ko'zga maqtashdan ko'ra, Yaxshisi so'k, topib nafli nuqsonin. "Qoraqalpoq yaxshi xalq-dal" deganda, Bobom yechib berib ketgan chakmonin.

Yolg'iz otin so'yib berib qo'noqqa, Yayov qolib bu el talay bo'lgan zor. Shuni aytib agar yana maqtasang, Muruvvatlar qilib tashlar ustuvor.

Bekligi ko'p jo'shib ketsa bu millat, Dostonlarni to'qir go'yo matodan. Barcha xalqni qoraqalpoqdan chiqazib, O'z tarixin boshlar Odam Atodan!

Mehnat desa yeng shimargan polvonday, Aravada tog' keltir de, keltirar. Do'stlik desa, yulduz topib olganday, Oq ko'kragin ezgulikka to'ldirar.

Yomon ko'rsa, "seni yomon ko'rdim!" deb, To o'zingga aytmaguncha tinmaydi. Bir pul topsa, "mana, men boy bo'ldim" deb, Barin yumshab qaytmaguncha tinmaydi.

Shumlik qilsa sir oldirar boladay, Ko'ngilchanlik, bo'shligiga kuyaman. Lekin uning poyoni yo'q daladay, Azamatlik keng fe'lini sayaman.

Toyin maqtab, otin minsang sinamas, Men bu elning xush xulqiga bergum tan. Mening qalbm Jayhun bilan hamnafas, Sal narsaga jo'shadigan xalqman.

Yaxshi so'z jon ozig'idir, naql bor, Xushomadga har kim havas o'zicha. Shundayam, bir o'tinchim bor, odamlar: Qoraqalpoqni ko'p maqtamang ko'zimcha.

NAVOIYGA

Sen armonsan cho'lga bitgan bog' bo'lib, Soyali, mevali bir daraxt bo'lib, Zamonlar dovuli chayqagan sayin Jamoling qulf urgan zarvaraq bo'lib.

MAXTUMQULIGA

El hosil moliga bozor topolmay, Cho'lda ko'chgan karvonmisan, nesan sen? Ko'krakda g'am bo'lib, sirtga chiqolmay, Ichda ketgan armonmisan, nesan sen?

Sellar quturmasa Atrakda soyda, "Qut qochdi" deb Gerkez qochar ul joydan. Chopilmagan qilich, mardga zor maydon, Surilmagan davronmisan, nesan sen?

Yashmoq tishlab, gulyoqalar toqinib, Oq yuzingga qora ro'mol-yopilib, Ayriqliqdan bag'ri o'tda yoqilib, Yig'lab ketgan jononmisan, nesan sen?

Zargarsiz zarmisan, bog'bonsiz bo'ston, Qalamsiz yurakka bitilgan doston, Cho'lda G'arib Shohsanamga qovushgan, Go'zal ko'shki ayvonmisan, nesan sen?

Go'zal mohir usta to'qigan g'oli, Sotib ola bilmas dunyoning moli. Vaqti kelib o'ngdan esmay shamoli, Sovrilgan xirmonmisan, nesan sen?

Yetti iqlim kalitin zehnga solib, Gul yaprog'in xazon ayozi qorib, Johillik dardiga darmon axtarib, Topmay ketgan donomisan, nesan sen?

Shodmon davron kelib, gullab diyoring, Zar zargarin topdi, karvon bozorin. Yangi avlodlarga to'lib guzaring, Chechak otgan bo'stonmisan, nesan sen?

Ibroyim der: chin shoirlik yo'lisan, Sen odam ko'ngilning so'lmas gulisan, Qo'shiqning tangrisi Maxtumqulisan, Teng-toyi yo'q turkiy zamon chechansan.

VATAN

Sen, ey amri vojib, oliy hukmdor, Ne qudratsan, qalbga hokimlik etgan? Biz tugul, ne ulug', dono shoirlar Sening ta'rifingni aytolmay ketgan...

Bag'ringda qancha xalq – mardonalar bor, Ular g'ururini ko'tarolmas tog'. Biroq sensiz ular – qanotsiz shunqor, Qaynoq mehri senga baxshida har chog'.

Mehnat va aqldan obro'si baland, Ulug'lar yashaydi bag'ringda omon. Biror nomard senga berar bo'lsa pand, Chaqirsang, "labbay" deb kelar shu zamon.

Biri otdan tushib, biri – taxtidan, Gunohkor bolangday koringga yasar. "Vatan" desa olov to'smas shaxdidan, O'qqa kiprik qoqmay tippa-tik qarar!

Sahar vaqti chiqsam Ma'shuq tog'iga, Sharqdan kulib bog'di Zuhro yulduzi. Kumush buloqlarning sho'x qaynashi ham Seni esga soldi, Amuning qizi.

Tog'dan bulutlarni haydasa shamol, Silkib turgandaysan menga oq ro'mol, Suv ichishga kelgan yeldek sho'x marol Senga o'xshab ketdi, Amuning qizi.

Go'yo cho'ng Elbrus osmonga tekkan, Bulutlar mahliyo, boshini eggan, Bahor bayramida oq ko'ylak kiygan Paytlaring yod etdim Amuning qizi.

Shamol shildiratsa tollar yaprog'in, Seni keldimi deb aldandim tag'in. Kakliklar gurlashib uchgani sayin Xandangni eslatar, Amuning qizi.

Ko'rsam jimirlagan suvlarin soyning, Tinglab cho'pon chalgan shodon surnayin, Shunda bir sen bo'lib shodligim, qayg'um, Ko'z oldimda turding, Amuning qizi.

Narzan buloqlari qandayin shinam, Sening ko'ngling yanglig'iniq va ko'rkam, Tog'lar uyg'onadi, qalbmida bir g'am – Orzuyim o'zingsan, Amuning qizi.

Sog'inching tugatdi bor toqatimni, Tosh ustida turdim o'qib xatingni, Yo'zsam yosh emanga o'yib otingni, Tog'lar yodlab oldi, Amuning qizi.

Beshrov jilvalanib turar qoshimda, Bulutlar o'malar xarsang toshida, Har kim kuyar bo'lsa sevgi yoshida, Mendek bo'lib kuysin, Amuning qizi.

Yoshlik fasli yozilmagan bir doston, Dog' tushmasin unga, avayla, inson, Yashash Yaratgandan bizgari ehson, Tiriklik bir marta berilar faqat.

Yoshlik fasli yozilmagan bir doston, Dog' tushmasin unga, avayla, inson, Yashash Yaratgandan bizgari ehson, Tiriklik bir marta berilar faqat.

Or-nomus, vijdoni sherik, Moli bilan joni sherik, Tomirdagi qoni sherik, Qon-qardosh so'z – tug'ishganlik.

Bir o'choqqa o't yoqtirgan, Bir yaylovda mol boqtirgan, To'y-hashamda ot choptirgan, Rizqi yo'ldosh tug'ishganlik.

Bir tandirga non yoptirgan, Zarur narsangni toptirgan, Bevaqt eshik qoqtirgan, Tug'ishganlik, tug'ishganlik.

O'zbekni o'z og'am etgan, Ulkan baxtni in'om etgan, Bir qozonda osh damlatgan, Mehri issiq tug'ishganlik.

Suvimni daryodosh etgan, Elimni do'st-qardosh etgan, Turkumga nag'madosh etgan, Xosiyatli tug'ishganlik.

Qozoqlarga toy so'ydirgan, Qirg'izlarga qo'y so'ydirgan, O'tov tiklab, bosh qo'ydirgan, Himmatli so'z – tug'ishganlik.

Daryoni daryoga qo'shgan, Fazolarning sirin ochgan, Bir oiladek uyushgan, Mangu yasha, tug'ishganlik.

TOSHQIN BO'LIB OQIB O'T

Zamonang bor, yayrab davron surmoqqa, Daryo bo'lsang, toshib-toshib oqib o't, Yelman desang, shamolday chop to'rt yoqqa, Bulut bo'lsang, ko'ngillarga yog'ib o't.

Gulman desang, xumor boqtir ko'zlarni, Tilman desang, marjonday tiz so'zlarni. Qon-qardoshdan burma aslo yuzlarni, Goh-gohida eshigini qoqib o't.

Botir bo'lsang, arg'umoqday ko'pik soch, Shunqor bo'lsang, yozgin samoda quloq, Keng fe'l bo'lib el-yurtingga quchoq och, Havolanmay, sen muloyim boqib o't.

Vaqt g'animat, bilgin olmosdan qimmat, Unutma, bu gaplar emas behikmat, Er yigitda bo'lsin saxovat, himmat, Tog'lar osha chaqmoq bo'lib chaqib o't.

Yoshlik fasli yozilmagan bir doston, Dog' tushmasin unga, avayla, inson, Yashash Yaratgandan bizgari ehson, Tiriklik bir marta berilar faqat.



BEDOR O'Y

Keyingi yillarda matbuot va ijtimoiy tarmoqlarda seriallarning saviyasi xususida ko'p va xo'bo' yozildi. Ular bir joyga jamlansa, katta seriallarga ssenariy bo'lgulik, bo'y baravar bitiklar hosil bo'lsa ajab emas. Ammo aksariyat tanqidlar amaliy takliflardan xoli bo'lgani vajidanmi yoki ularda vazmin tafakkurdan ko'ra ehtirosu hayajonning toshi og'irroq kelgani sababmi, ishqilib, jabhada o'zgarish ro'y berishi, "muz ko'chishi" qiyin kechayotir.



Milliy serialchilik haqida ayrim mulohazalar



Bugun milliy serialchilikni rivojlantirish masalasi yana kun tartibiga qaytdi. "Chin so'z – mo'tabar, yaxshi so'z – muxtasar", deydi hazrat Alisher Navoiy. Ammo millat ma'naviyati va ma'rifatida taqdirulamal ahamiyat kasb etgan ushbu mavzu do'ppini bir chetga qo'yib, batafsilroq mulohaza yuritishni taqozo etadi.

Dunyoda serial shunchaki ermak, tomosha, vaqtni o'tkazish vositasi emas, balki kuchli mafkuraviy qurolga aylangan. Media olami shunchalik qudratga ega bo'lib boryaptiki, biror bir mediamahsulotning ommalashuvi, yetti iqlimga tarqalishi uchun gohida ko'z ochib yumgunchalik fursat kifoya qilmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda boshqalarning videosi fonida foydalanuvchiga o'z lavhasini tayyorlashiga imkoniyat beruvchi algoritim son-sanoqsiz videomahsulotlarning paydo bo'lishiga olib kelyapti. Media orqali dunyo ahlining yurak urishiga qadar nazorat qilish, zamonaviy tilda aytganda, trendlar orqali omma ongini manipulyatsiya etish mumkin bo'lib qoldi. Yashin tezligida, xuddi vurusday tarqaladigan "chellenj"larga yoshlar tugul, katta avlodning ham ko'zi o'rgandi. Dunyo ahli qisqacha videolar – vaynlariga mukkasidan ketgan bo'lsa-da, seriallar ham ommabop, ularga qiziqish susaygani yo'q.

"O'zgarishlar shamoli esganda nodon kimsa devor quradi, oqil inson esa tegirmon barpo etadi", deydi xitoyliklar. Biz ham o'zgarishlar shamolidan oqilona foydalanmog'imiz lozim.

Bizning jamiyatda ham seriallarga bo'lgan talab aslo kamaygani yo'q. Har bir oilada etalabki yoki kechki taom vaqtida serial tomosha qilish odat tusiga kirgan. Garchi smartfonlar navqiron avlodni televizordan uzoqlashtirayotgan bo'lsa-da, serialsevarlar safi u qadar siyraklashgani yo'q.

Afsuski, mana shunday sharoitda milliy seriallarimizning saviyasi maqtagulik emas. Muhtaram Prezidentimiz Ma'naviyat va ma'rifat kengashining o'tgan yil dekabr oyida bo'lib o'tgan kengaytirilgan yig'ilishida bu borada o'z xavotirlarini bildirdi. Davlatimiz rahbari milliy seriallarni ishlab chiqarish bo'yicha mavjud tizimni tubdan isloh etish, bu yo'nalishda ijodkorlarimizni qo'llab-quvvatlash kabi choralar milliy seriallarimizni g'oyaviy-badiiy va texnik jihatdan jozibali, hamma qiziqib ko'radigan darajaga yetkazishga ko'mak berishini qayd etdi. Shu maqsadda Milliy seriallar ishlab chiqarish konsepsiyasini yaratish zarurligi ta'kidlandi.

Seriallar sifati borasidagi muammolardan xabardor soha mutaxassislari bu haqda ko'pdan buyon bong urib keladi. Men ham bir muddat

ushbu sohada ishlaganim bois ularning dard-u hasratini yaxshi tushunaman. Sifatli tasvir xamirdan qil sug'urgandek osongina paydo bo'lmaydi. Ayniqsa, bugungi zamonda bir daqiqalik mediamahsulot yaratish uchun falon pul ketishi sir emas. "Yangamning oshini shirin qilgan akamning masallig'i bo'ladi", degan gap bejiz aytilmagan. Tan olish lozimki, hozirgi vaziyatda sifatli seriallar uchun aksar telekanallarning "cho'ntag'i"da yetarli mablag' mavjud emas. Demak, bu muammoni yechish uchun katta byudjetga ega bo'lish va aniq bir mexanizmi joriy etish kerak. Mablag' masalasini-ku hal qilsa bo'lar, ammo pul topilgan taqdirda ham yangi ijodiy qon zarur bo'ladi. Chunki ayni paytda serial ishlayotgan ijodkorlar yangi davrga hamqadam va hamnafas bo'lmoq uchun ko'p izlanishi, talay dovonlardan oshishi talab etiladi.

Xorij seriallari xususida gap ketganda ayrim ziyolilarimiz ulardan butunlay voz kechishni taklif etadi. Ammo bu keskin qadam qanchalik to'g'ri? Xorij seriallarining barchasi ham ma'naviy-axloqiy mezonlarimizga zidmi? Nazarimda, sifat bosqichiga chiqqunimizga qadar xalqimiz mentalitetiga mos keladigan, suyuji va g'oyasida buzuqlik bo'lmagan sara seriallarni tarjima qilish va efigra berishga e'tibor qaratishimiz lozim. Chunki ilm-fan kabi san'at sohasida ham mahdudlik hech qachon yaxshilikka olib kelmaydi.

Xorij seriallarni televideniye efitridan olib tashlash maqbul yechim emasligini yaqin vaqtlarda internet platformalarida shuhrat qozongan "Qog'oz uy", "Kalmar o'yini", "Uensdey", "Yigit so'zi" kabi veb-seriallar ko'rsatib berdi. Serialga badiiy kino, "art haus" mezonlariga ko'ra yondashish to'g'ri emas. Chunki janr talabiga ko'ra, serialning asosiy vazifasi baribir tomoshabinning vaqtini unumli o'tkazish, uning ko'nglini chog' etish, mazmunli istirohat tuhfa qilishdan iboratdir.

Serial ko'rish – xalqimizning sevimli mashg'ulotlaridan. O'zbekistonga dastlab o'tgan asming 90-yillarida Lotin Amerikasi seriallari "import" qilina boshlagan. O'sha yillari televideniye orqali efigra uzatilgan "Morena Klara" mamlakatimizda eng ommalashgan dastlabki seriallardan biri bo'ldi. Keyinchalik "Esmeralda", "Gvadelupe" ko'pchilikning xayolini "o'g'irladi". Meksika seriallari hamisha dunyo bo'yicha yuqori reytingda turgan. Tegirmon navbati bilan deganlaridek, keyinchalik koreys seriallari o'zbek telekanallarini zabt etdi. Dastlab zamonaviy, ishq-muhabbat mojarolariga bag'ishlangan "Qish sonatasi", "Qalbim chechagi", "Yoz ifori", "Kuz ertagi" kabi kinomahsulotlar namoyish qilingan bo'lsa, keyin "Saroy javohiri", "Dengiz hukmdori", "Jumong"

kabi tarixiy mavzudagi seriallar tilga tushdi. Shundan so'ng efitrlarimizda turk seriallari paydo bo'ldi. Bular ham dastlab anchayin maishiy mavzudagi kartinalar edi. "Qashqirlar makoni" esa mislsiz darajada katta qiziqish bilan ko'ildi. Yaqin-yaqingacha ham xususiy telekanallarda asosan turk seriallari namoyish etilardi. Ammo internetning keng quloch yozgani bois so'nggi yillarda namoyish etilayotgan seriallarning hech biri avvalgilaridek ommalashgani yo'q. Chunki kinomahsulot ko'p, ko'raman degan mardumga platforma ham, serial ham bisyor.

Bundan o'n-o'n besh yil oldin serial uchun asosiy platforma televideniye hisoblanardi. Bugun esa buning uchun alohida platformalar yaratilgan. Birgina "YouTube" tarmog'iga yuzlab o'zbek seriallari joylangan. Keyingi vaqtlarda veb-seriallar ommalashib borayotgani ham bu boradagi tendensiyalarning o'zgarayotganidan

Turk kinoijodkorlari adaptatsiyani ham mo'hirona o'zlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Dastavval, o'zlarining mumtoz asarlari, mashhur xorijiy seriallarni qayta tiklashdi. Bunda ma'lum bir qonun-qoidalarga rioya etiladi, albatta. Masalan, asl voqealik serialning o'talarida tanib bo'lmaydigan darajada o'zgaradi.

Biz hamma muammoning sababi-yu yechimi pulda deb bilamiz. Vaholanki, ma'naviyat va madaniyat sohasida, eng avvalo, vijdon birinchi o'rinda turmog'i dardkor. Negaki, vijdonli odamgina xalq ma'naviyati, millatning ertangi kelajagi uchun qayg'uradi. Rejissyor Jahongir Qosimovning "Dev va pakana" filmida rahmatli Obid Asomov Polvonga qarata: "Bular dunyoni pul bilan o'lchaydi, somsa bilan o'lchaydi", deb ta'na qiladi. Albatta, tadbirkor zoti foydani ko'zlaydi. Kino sohasiga pul tikadigan sarmoyadorlar ham birini o'n, o'nini yuz qilmoqni o'ylashi tabiiy. Sav-

Sir emas, aksar seriallarimizda asosiy rakurs maishiy mavzularga qaratiladi. Mavzular ham yakrang. Men bir tomoshabin sifatida harbiylar, shifokorlar, ishlab chiqarish vakillari, fermerlar, o'qituvchilar hayotidan naql qiluvchi qiziqarli seriallar ko'rgim keladi. Shunga ko'ra, mavzu va yo'nalishlar bo'yicha reyting mezonini ishlab chiqish kerak, deb hisoblayman. Reytingni belgilashda shifokorlar haqidagi serialni 100 ming odam ko'rganini sevgi-muhabbat haqidagi serial 800 ming marta tomosha qilinganiga teng deb hisoblansa ma'qul bo'ladi, nazardir. Ya'ni, ko'rimlilik borasida badiiylik, mavzu va g'oya inobatga olinishi adolatdan bo'ladi. Badiiy kengashlarining faoliyat olib borgan foydali, ammo kengash a'zolarining mas'uliyati ham moliyaviy masalalarga borib taqaladi. Jamoatchilik asosida ishlash, a'zolari mas'ul idoralardan belgilash, arzimagan choychaq evaziga tog'day mas'uliyatni Badiiy kengash zimmasiga yuklash kabi amaliyot o'zini oqlamaypti. Bu borada ham aniq tizim ishlab chiqish barobarida seriallar mavzusini kengashlararo muvofiqashtirish ham kerak bo'ladi.

Bir paytlar "Ko'ngil ko'chalari", "Shaytanat" kabi seriallarimiz xalqimiz tomonidan suyib tomosha qilingan. Keyinchalik efigra berilgan "Qaytar dunyo", "Tutash daqdirar", "Opa-singillar", "Hayot jilg'alari", "Mehmonjonlardan aylanay" seriallari ham badiiy saviya, mazmun va g'oya jihatidan ancha bama'ni edi. Bugun esa ikki tomchi suvday bir-biriga o'xshash, mavzusi va g'oyasi bo'sh, real hayotdan uzoq, zo'rma-zo'raki sahnalarga boy seriallar ko'paygani kishini o'ylantiradi.

Birinchidan, milliy seriallar uchun yetarli byudjet va mavzular rang-barangligi masalasini hal qilish lozim. Chunki tomoshabin serialdagi syujetdan tashqari undagi mujda – "messej"larni o'zi bilmagan holda ongostida saqlab oladi. Bunda o'z sohasining mutaxassisi bo'lgan ijodkorlar jamoasini yig'ish va ularni badastir shart-sharoit bilan ta'minlash zarur. Eski naqlga muvofiq, chumchuq so'ysa ham qassob so'ygani, ssenariylarni yozishga professional yozuvchi va dramaturglar jalb etilgani ma'qul.

Ikkinchidan, maqola avvalida ta'kidlaganimizdek, xalqimiz mentalitetiga uyg'un, yuksak badiiy saviya va mazmunga ega xorijiy seriallarni saralash kerak. Chunki ayni paytda telekanallarning efigra vaqtini milliy seriallar bilan to'ldirish imkonsiz. Xorijiy seriallarni efigra berish orqali esa tomoshabing sifatlari kontent tuhfa etish vazifasi birmuncha osonlashadi.

Uchinchidan, serialchilikka iste'dodli yoshlarni jalb qilish, jumladan, veb-seriallar ishlaganiga kengroq imkoniyat yaratish lozim. Bu orqali internet platformalarini ham sifatli milliy kontent



darak beradi. Bugun 15-20 daqiqaga mo'ljallangan 10 qism atrofida ishlanayotgan veb-seriallar butun dunyoda eng xaridorir va tomoshabop bo'lib turibdi. O'zbekistonda ham veb-seriallar ishlayapti, ammo ularning aksari hozircha havaskorlik darajasida. Bu format kinoga ancha yaqin bo'lgani, ijodkorlar uchun tasvirga olish nisbatan kamxarjroq ekani, tomoshabin uchun esa ko'rishga ko'p vaqt talab etmasligi kabi omillar sababli tez ommalashmoqda. Demak, Milliy seriallar ishlab chiqarish konsepsiyasida ham veb-seriallarga alohida o'rin ajratish maqsadga muvofiqdir.

San'at va sanoat chegaralari qorishib ketgan bir davrda dunyodagi qator davlatlar serial ortidan kattagina daromad ko'rayotir. Ulardan biri – Turkiya. Statistika qaraydigan bo'lsak, hozirda Turkiya teleseriallar eksporti bo'yicha Janubiy Koreya, Meksika, Braziliya kabi "eski gvardiya"chilarni ortda qoldirib, AQSh va Buyuk Britaniyadan keyin uchinchi o'rinni egallagan. Hammasi 2011-yilda suratga olingan "Muhtasham yuz yil" serialidan boshlangan. Tarixiy mavzudagi kartina nafaqat dunyo bo'ylab millionlab tomoshabingga ega bo'ldi, balki boshqa turk seriallariga ham yo'l ochib berdi. Tahlillar ko'ra, 2022-yilda Turkiya milliy seriallar eksportidan 600 million dollar foyda ko'rgan. Bu ko'rsatkich tez orada milliard dollarga yetishi taxmin qilinmoqda. Ispaniya, Saudiya Arabistoni va Misr 2023-yilda turk seriallarining eng yirik "importchilari"ga aylangan.

Turkiyada serialning bir qismini suratga olish uchun o'rtaacha 200 ming dollar sarflanarkan. Liboslar, pardoz-andoz, dekoratsiya binoyidek. Asosiy, aktyorlar o'z ishiga vijdonan yondashadi, bir necha oy davomida rolg hozirlik ko'radi, chin dildan, chuqur iztirob va teran mas'uliyat bilan o'ynaydi. Siz ularga ishonasiz va hamdardlik tuyasiz. Voqealarning qanday rivojlanib borishini oldindan anglashga harakat qilasiz. Ssenariy mualliflari, rejissyorlar va operatorlar chet elga sayohat qilish, G'arb mutaxassislari tajribasini o'rganish uchun mablag'ni ham, vaqtini ham ayamaydi. Shu bois Turkiya garchi to'liq metrajli kinematografiyada ulkan muvaffaqiyat qozona olmagan bo'lsa-da, serialchilik borasida dunyoda o'z o'rnini topa bildi.

Deiylik, Rossiyada yuqori sifatga ega bo'lgan seriallar odatda 8-16 qismdan iborat bo'ladi, 300-350 qismilari Pushkin vatanida aytarli qiziqish uyg'otmaydi. Turkiyada esa unday emas: turk tomoshabin 15 qismli seriallarni xushlamas ekan. Yunus Emro yurtida 40-60 qismli seriallarning bozori chaqqon ekani barcha Sharq xalqlariga xos "Ming bir kecha" kabi uzun sarguzashtlarga o'chlik bilan izohlansa, ajab emas.

doni chaqqon qiladigan asosiy omil – reyting. Asl maqsad manfaat bo'lgani vajidan reyting ortidan quvish, ommaga xush keladigan g'oz yengil mavzular atrofida o'rallashish holati ko'p uchrayapti.

Aslida, ma'naviyat va madaniyat mahsullarini reytingga qarab saralash maqbul ish emas. Muqoyasa uchun futbol va shaxmatni olaylik. Ikkalasi ham sport turi. Ammo kontingent yig'ish borasida shaxmat futbolga teng keladimi? Holbuki, shaxmat millat tafakkuri darajasini ko'rsatadi-ku! Reyting, pul va jamiyatning kelajagi... Xo'sh, qay birini tanlash kerak? Hamma narsani reytingga taqayverib, millatning kelajagini boy berib qo'ymaymizmi?..

Shu o'rinda ikki og'iz izoh. Mulohazalarimiz reyting usulidan butkul voz kechish ma'nosida



talqin etilmasin. Masalan, xorijiy seriallarni tanlashda uning mavzusi, auditoriyaning qiziqishini hisobga olgan holda, bolalarbop, oilaviy, tarixiy, tarbiyaviy kabi har bir yo'nalish bo'yicha alohida reyting tizimi joriy etilishi zarur.

Soha mutaxassislarining fikrini falakka chiqishi bejiz emas. Ular bilan suhbatlashsangiz, milliy seriallar borasida aniq aybdor yo'q degan to'xtamga kelasiz. Chunki hamma aybni bir-biriga to'nkaydi. Ammo milliy seriallar konsepsiyasini tuzish masalasiga davlat rahbari darajasida e'tibor qaratilgani vaziyatning nechog'li murakkab ekanidan dalolat beradi.

bilan boyitish mumkin. Istaymizmi, yo'qmi, zamon bilan hamnafas bo'lish ko'p jabhalarda yutqiziqilarning oldini oladi.

Shuningdek, seriallarning g'oyasi va ssenariysi uchun kreativ yondashuv, ilg'or ijodkorona yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash zarur. Rag'bat bo'lmagan joyda ijodiy izlanish bo'lmaydi. Ijodkorlardan esa yuksak mas'uliyat bilan birga fidoyilik ham talab etiladi. Shundagina xalqimizga sifatli milliy kontent taqdim etish masalasida olg'a qadam tashlagan bo'lamiz.





TARIX VA TAQDIR



Mulla Bekjon Rahmon XX asr boshlarida Xorazmda madaniyat va ma'rifatga oid ko'pgina asarlarni to'plab, nashr qilish bilan birga, bu yo'nalishda tadqiqot ishlarini ham olib bordi. U 1887-yili Xivada ma'rifatli oilada tavallud topgan. Otasi Rahmonbergen mahram Xiva xonligida bosh vazir lavozimida ishlagan taraqqiyparvar, islohotchi davlat arbobi Islomxo'janing ish yurituvchisi bo'lib, shaharda kasalxona, pochta, telegraf, qator madrasalar va minoralarni barpo etishda bosh-qosh bo'lgan. Bekjon yoshligidan ilm-ma'rifatga ishtiyoq ruhida ulg'ayib, maktab va madrasalarda tahsil oladi. Otasi Islomxo'ja yordamida o'g'lini Istanbul seminariyasiga o'qishga yuboradi. Mulla Bekjon 1913–1918-yillarda Turkiyada diniy va dunyoviy bilimlarni puxta egallaydi. Aynan o'sha kezlarda u Ismoil G'asprali boshchiligidagi yosh turklar harakati bilan yaqindan tanishadi. Natijada Xivaga qaytgach, yosh xivaliklar harakati safiga qo'shilib, ma'rifatparvarlik g'oyalari ni targ'ib qila boshlaydi.

1920-yili Xiva xonligi o'rnida tashkil qilingan Xorazm Xalq Respublikasining I qurultoyida Mulla Bekjon xalq maorifi noziri etib saylanadi. Shu bilan birga, madaniyat noziri sifatida ham faoliyat yuritadi. U Karim Qori Niyoziy bilan birgalikda sobiq xon saroyida yetim bolalar uyini ochib, o'qituvchi va tarbiyachilarni jalb qiladi. O'sha yilning oktyabr oyida Mulla Bekjon taftish noziri lavozimiga tayinlanadi. U Xorazm Xalq Respublikasi markaziy ijroiya qo'mitasining ish boshqaruvchisi, hukumat a'zosi sifatida ham o'zining tashkilotchilik qobiliyatini namoyon qiladi. Xususan, Buxoro va Xorazm Respublikalari o'rtasida iqtisodiy-madaniy hamkorlik shartnomasining tuzilishida faol ishtirok etadi. 1920–1924-yillarda Xorazm Xalq Respublikasining Moskvadagi muxtor vakili vazifasini ham bajaradi.

Asli mutaxassisligi adabiyotshunos hisoblangan Mulla Bekjonning ilmiy-ijodiy tarjimai holi haqida juda kam ma'lumot saqlanib qolgan. Taniqli olim Naim Karimov keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, xorazmlik shoir, keyinchalik qatag'on etilgan Qurbon Beregin o'tgan asrning 20-yillarida Xorazmda yuz bergan voqealar, jumladan, Mulla Bekjon Rahmon o'g'li kabi ziyolilar hayoti aks ettirilgan 15

XIVALIK JADID MULLA BEKJON



bosma taboq hajmli tarixiy asar bitgan. Afsuski, u qamoqqa olingach, mazkur asari ham yoqib yuborilgan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, Bekjon Rahmon o'g'li Abdurauf Fitratning yaqin maslakdoshi bo'lgan. Adabiyotshunos olim, professor, H.Boltaboyevning ta'kidlashicha, Fitratning Buxoro amirligining o'sha paytdagi tuzum va hayoti tanqidiy yoritilgan "Begjon" (1916) pyesasi aynan Bekjon Rahmon o'g'liga bag'ishlangan ekan. Ammo bu asar ham bizgacha yetib kelmagan.

Mulla Bekjon o'zining qisqa umri davomida salmoqli ishlarni amalga oshirdi. U madaniyat va ma'rifat sohasiga oid qimmatli ma'lumotlarni to'plash va o'rganish orqali adabiyot, musiqa, pedagogika, tilshunoslik, tarix fanlariga oid "O'talar so'zi", "Xalq adabiyoti", "Xorazm musiqiy tarixchasi", "Kattalar alifbosi", "O'qish kitobi", "Lotin yozuvi", "O'zbek orfografiyasi haqida ocherklar", "Xorazm tarixi ocherklari", "She'rlar yug'urmi" kabi asarlarni yaratdi.

Shuningdek, Xorazmda dunyo yuzini ko'rgan dastlabki gazeta – "Inqilob quyoshi"ning birinchi mas'ul muharriri sifatida ham qizg'in faoliyat ko'rsatdi. U o'sha davrda "Qizil Xorazm", "Xorazm xabarlari", "Maorif", "Yoshlar ovozi", "Ishchilar tovushi", "Yordam", "Qopqon" kabi gazetalarning paydo bo'lishida ham muhim rol o'ynadi. Ayniqsa, xivada qog'oz fabrikasi barpo etilishida ham munosib xizmatlari bor. Taniqli sharqshunos A.N.Samoylovich bilan hamkorlikda ko'plab folklor va yozma adabiyot namunalari rus tiliga tarjima qilib,

Sankt-Peterburg shahrida chop etishga muvaffaq bo'ldi. Mulla Bekjonning milliy madaniyatimiz oldidagi yana bir ulkan xizmati shundaki, u Xiva xonligi tugatilgach, Toshhovli binosida talon-toroj etilish xavfi ostida qolgan ko'plab madaniy boyliklarni to'plab, davlat muzeyini tashkil qildi va o'zi unga rahbarlik qildi.

Mulla Bekjon musiqashunoslik ilmidan ham yaxshi boxabar edi. U 1922-yili Xivada ilk musiqa maktabini tashkil qilib, Matyusuf Xarratov kabi bir qator taniqli san'atkorlarni ishga taklif qiladi. Albatta, u faqatgina maktabni ochish bilan maqsadga erishib bo'lmagani yaxshi anglagan. Shu bois u ushbu maktab o'quvchilari uchun darslik va o'quv qo'llanmalarini yozishga kirishadi. Uning Muhammad Yusuf Devonzoda bilan hammualliflikda yozilgan va 1925-yili Moskvada chop etilgan "Xorazm musiqiy tarixchasi" kitobi o'zbek musiqashunosligida alohida o'rin tutadi.

Taassufki, ushbu maktab turli bahonalar tufayli ikki yildan so'ng tugatildi. 1927-yili Samarqandda musiqa va xoreografiya instituti ochilgach, Matyusuf Xarratov o'sha yerga ishga taklif qilindi. Uning tavsiyasiga asosan sobiq Xiva musiqa maktabining o'quvchilari Rahmon Ollaberganov, Sharif Ramazonov, Sharif Solayev mazkur institutda o'qishni davom ettirishadi. Bu sozandalar keyinchalik Toshkent davlat konservatoriyasida ham sirdan ta'lim olib, respublikamizning turli hududlarida samarali faoliyat ko'rsatishgan.

Shubhasiz, bunday taraqqiyparvar insonlarning milliy davlat tuzish, xalqning azaliy qadriyatlarini asrab-avaylash va rivojlantirish, mahalliy yoshlarga dunyoviy bilimlarni o'rganish va diniy ma'rifatni asrab-avaylash bilan bog'liq g'oyalari Sho'rolar mafkurasiga zid hisoblanar edi. Shu bois uning ham hayoti fojiali tugadi. Atoqli ma'rifatparvar Mulla Bekjon 1929-yili Amudaryoda suzib ketayotgan kemada qizil chekistlar tomonidan o'tib o'ldirildi.

Atoqli ma'rifatparvar Zaki Validiy To'g'on o'zining "Xotiralari" kitobida "Mulla Bekjon Xivada zamonaviy madaniyatni rivojlantirish uchun katta fidoyilik ko'rsatdi. Agar Rusiya xalqati bermaganida, ular yosh Xiva hukumatiga katta xizmat qilgan bo'lur edilar", deb yozadi.

Sobiq tuzum davrida Mulla Bekjonning ham faoliyatiga salbiy baho berib kelindi. O'sha davr ma'rifiy tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlarda u burjua millatchiligi g'oyasini ilgari surgan shaxs sifatida tilga olindi. Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda Mulla Bekjonning ham faoliyatiga xolis baho berilib, ilmiy-ma'rifiy merosi atroflicha o'rganilmoqda. Lekin afsuski, bu inson haqida to'liq ma'lumot beruvchi manbalar haligacha topilgani yo'q. Kelgusi tadqiqotlar natijasida bu borada ham yangi faktlar aniqlanib, yurtdoshlarimiz xivalik taniqli ma'rifat fidoyisining ibratli hayoti va faoliyatidan chuqurroq boxabar bo'lishiga ishonamiz.

Botir MATYAQUBOV,
san'atshunoslik fanlari nomzodi.

XOTIRA AZIZ

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Yodgorov Usmon – 1903-yili Qo'qon shahrida tug'ilgan. Ijtimoiy kelib chiqishini yashirgani uchun partiyadan o'chirilgan. "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkiloti rahbariyati bilan aloqada bo'lgan. Hibsqa olingan paytda "Stalin yo'li" gazetasi tahririyatida kotiblik qilgan. Sovet hokimiyatiga qarshi dushmanlik munosabatida bo'lib, aksilinqilobiy guruh yig'inlarida ishtirok etgani, mag'lubiyatchilik mazmunidagi she'rlarni tarqatgani, xalq dushmanlarini maqtagan uchun O'zSSR Jinoyat kodeksining 66-modda 1-bandi, 67-moddasi bilan 10 yil qamoq jazosiga hukm etilgan.

QATAG'ON QURBONLARI

Zokiriy Majid – 1897-yili Samarqand shahrida tug'ilgan. "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkilotining faol a'zosi sifatida, "O'n sakkizlar guruhi"da qatnashgani uchun 1934-yili VKP(b) safidan chiqarilgan. Qamoqqa olingan paytda Urgut rayoni maorif bo'limi boshlig'i bo'lgan. Aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda, troskiychilarning o'tilishiga hamdardlik bildirganlikda ayblanib, shaxsiy mulklari musodara qilinib, O'zSSR NKVD Samarqand bo'limining 1256-sonli ayblov ishi bo'yicha otuvga hukm qilingan.

Bobojonov Isrofil – 1884-yili Tojikiston SSR Panjikt shahrida tug'ilgan. O'zSSR Ichki Ishlar Xalq komissarligi Samarqand bo'limining 5764-sonli ishi bo'yicha aybdor deb topilgan. Sobiq quloq, "Ittihod Sharq" aksilinqilobiy tashkilotining sobiq a'zosi. Qamoqqa olinganida aniq mashg'uloti bo'lmagan. Tizimli ravishda aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda ayblanib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan.

Rahmonqulov Hazratqul – 1889-yili Jomboy rayoni Jomboy qishlog'ida tug'ilgan. Aksilinqilobiy "Milliy ittihad"ning Samarqanddagi tashkilotchisi, rahbari O'rinxo'jayevning yaqin do'sti bo'lgan. O'zSSR IXX Samarqand bo'limining 1417-sonli ishi bo'yicha ayblangan. Millatchilik targ'ibotini olib borganlikda, milliy adovatni kuchaytirganlikda ayblanib, 8 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan.

Muhammedov Muxtorxon – 1899-yili Qo'qon shahrida tug'ilgan. "Milliy ittihad"ning a'zosi. 1930-yili aksilinqilobiy faoliyat uchun 3 yil qamoqqa hukm etilgan, hibsqa olingan paytda aniq mashg'uloti bo'lmagan. O'zSSR IXX Qo'qon shahar bo'limining 1749-sonli ishi bo'yicha ayblanib, O'zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi bilan 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan.

Abdulla Rahmatzoda – 1901-yili Qo'qon shahrida tug'ilgan. 1930-yili aksilinqilobiy faoliyat uchun 5 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. VKP(b) safidan chiqarilgan. "Milliy ittihad"ning a'zosi. Hibsqa olingan paytda aniq mashg'uloti bo'lmagan. Millatchilik targ'iboti olib borganlikda, "Talabalar jamiyati" nomli aksilinqilobiy jamiyat tashkilotchisi va rahbari bo'lganlikda ayblanib, O'zSSR IXX Qo'qon shahar bo'limining 241/1747-sonli ishi bo'yicha otuvga hukm etilgan.

Muhammadiyev G'afurjon – 1886-yili Andijon shahrida tug'ilgan. Qo'qon shahar volost boshqaruvchisi, "Milliy ittihad" tashkiloti a'zosi. Qamoqqa olingan paytda Rayonlararo himoyachilar kollegiyasi a'zosi bo'lgan. Muxtor hukumat davrida Sovet hokimiyatiga qarshi bosmachilar bilan birgalikda kurashgan, millatchilik targ'ibotini olib borgan, degan ayblov bilan 8 yil muddatga qamoq jazosiga hukm etilgan.

Akraxonov G'ulomxon – 1887-yili Namangan shahrida tug'ilgan. "Milliy ittihad" aksilinqilobiy tashkiloti a'zosi. 1918-yili bosmachilik faoliyat uchun 3 yil qamoq jazosiga hukm etilgan va VKP(b)dan o'chirilgan. Unga aholi orasida doimiy ravishda millatchilik targ'ibotini olib borgan, partiya va hukumat rahbarlarini obro'sizlantirgan, ruslar zulmidan ozod bo'lish uchun Sharq xalqlarini yagona milliy tashkilotga birlashtirishga chaqirgan, degan ayblar qo'yilib, otuvga hukm qilingan.

Muhammadjonov Abdusalom Boybachcha – 1878-yili Qo'qon shahrida tug'ilgan. Sobiq quloq, qamoqqa olingan paytda aniq mashg'uloti bo'lmagan. Unga "Sho'royi Islom" aksilinqilobiy tashkiloti hay'ati a'zosi, Qo'qon muxtor hukumati harbiy ministri yordamchisi bo'lgan. Qo'qonda qo'zg'olon tashkil etishda faollik ko'rsatgan, degan ayblovlar qo'yilgan.

Muhammadjonov Muhammad Amin – 1894-yili Qo'qon shahrida tug'ilgan. "Milliy ittihad" a'zosi. Qamoqqa olingan vaqtida O'zbekiston oziq-ovqat savdo inspektori bo'lgan. U bosmachilar to'dalarini tashkil etishda faol ishtirok etganlikda, 1920-yili bolsheviklarga qarshi kurashga chaqirganlikda ayblangan.

No'monov Jalol – 1893-yili Namangan shahrida tug'ilgan. 1927-yili aksilinqilobiy faoliyat uchun 5 yil va 1935-yil 1 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Hibsqa olingan paytda konserva zavodida ishlagan. Unga "Milliy ittihad" a'zosi, doimiy ravishda aholi orasida aksilinqilobiy, mag'lubiyatchilik targ'ibotini olib borgan, bosmachilar to'dalariga xayrixohlik bildirgan, degan ayblovlar qo'yilgan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor,
Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda).

TABDIL

NIMA QAYOQQA KETADIR?



JULQUNBOY

Ishchining topqani xo'jayinning xaltasiga ketadi.

Sovdagarning topqani o'g'ul to'yisiga ketadi.

Toshkand ko'ncilarining topqani qishliq to'kma bilan yozliq gapka ketadi.

Qimorbozning topqani gartkam bilan to'rtta oshiqqa ketadi.

Bedanabozning topqani tariqqa ketadi.

Muridning topqani eshong'a ketadi.

Eshonning topqani sakkizta xotung'a ketadi.

Xotunlarning topqanlari isiq-sovuqchi domlag'a ketadi.

Boybachchanning topqani "Turkvino" bilan barishnaxonlarga ketadi.

Yoshlarning topqanlari upalik bilan o'sma-surmalariga ketadi.



Eski shahar ispolqo'mining topqani har xil yuqori shefstvolarg'a ketadi.

Baladiya bo'limining topqani xizmatchilarning maoshig'a ketadi.

Vaqf sho'basining topqani idorasini bejash uchun qip-qizil

gilamlarg'a ketadi.

Otning topqani eshakka ketadi.

Bo'ringning topqani tulkig'a ketadi.

"Mushtum"ning topqani turkistonliklarning tumshug'ig'a ketadi.

Ushbularni o'qug'an kishining dami-dambalg'a ketadi!

Bizning topqanimiz achchiq-tiziqqa ketadi! – deb, Mulla Julqunboy yozdilar.

"Mushtum": yozganlarimizning hammasi ham havoga ketadur! – deb biz ham muhrimizni bosdiq.

"Mushtum" jurnali,
1923-yil, 3-son.

¹ "Turkvino" – o'sha paytda "Turkvino" nomli Turkiston davlat tresti boshqarmasi turli xil vino ichimliklari chiqargan.
² Vaqf sho'basini – vaqf yerlar inqilobdan so'ng maorif ixtiyoriga berilib, daromadi maktab va maorif ehtiyojlariga sarflangan.
³ Dambal – ishton



TARMOQLARDA NIMA GAP?

Mana, O'zbekistonning bugungi yosh futbolchilari mamlakat tarixida birinchi marta jahon arenalarida o'ynay olishini isbotladilar! Balki, oldingi o'yinchilar bularga havas qilayotgandir. Yoki "Biz ham yomon o'ynamasdik, bularga nasib etdi-da", deyisharmikin? Xuddi shunday! Bularga nasib etdi, uloq yoshlarda ketdi.

Ochig'i, men doim yosh avlodni kuzatib kelaman. Albatta, tadqiq qilish darajasida emas, shunchaki hozirgi yoshlarning fikrlashiga qiziqaman. Yaqin-yaqinlargacha diqqatimni tortganlari deyarli bo'lmagan. Faqat biznes yo boshqa sohalarni aytmayapman, ijtimoiy sohalarni nazarda tutayapman.

Ongimiz moddiylashgan bozor mezonlariga moslashgan bo'lsa kerak. Negaki, mustaqillikning ilk davridayoq 70-80-yillarda tug'ilgan avlod bozor, ko'cha-biznes, pul bilan tanglayi ko'tarildi. Yaxshiyam mustaqillikdan keyin tug'ilganlar davrida media rivojlandi va ular texnologiyalarning, keyinroq tug'ilgan avlod esa bilimning qadriga yeta boshladi.

Poytaxtdan ko'chib, 2000-yildan buyon boshqa shaharda ishlay boshlar ekanman, muloqatga yanada qattiqroq berildim. O'sha paytlar bir samarqandlik domla Moskvadan olib kelgan amerikalik muallif Rendi Geyning kitobini harislik bilan o'qib chiqdim, deyarli hammasini daftarimga ko'chirib oldim. Men uchun yangi gaplar edi...

N.Kozlovning "Философские сказки" kitobini internetdan yuklab olib, qayta-qayta o'qidim. Bu kitoblar fikrlashimni o'zgartirardi.

Bilasizmi, biz sharqona an'anaviy tafakkur tarzidan sovetcha fikrlashga o'tgan va shunda qotib qolgan balerinalar baletini. Shuncha yashab, fan nomzodi bo'lib ham-a? Ha!

Sofi Lorenning kitobidagi "Работа – отдых" degan iborani ancha paytgacha shunday bo'lishi mumkinmi, deb hazm qilolmay yurganman. Axir, biz bir umr qiyalib, ozib-to'zib orzulariga yetamiz degan o'yni me'yor deb bilardik.

Rendi Geyning kitobida yozilgan qoidalar-chi? "Hech narsa yig'mang, berib yuboring, yangisini oling, aylantirish kerak. Hamma narsani, hatto energiyani yangisiga almashtiraverish kerak, modellar, fasonlar, moda o'zgaradi..." Yo'g'e, qanaqasiga, olgan mulkimizni-ya? O'lay deb olgan kompyuterni yangilash... "Boylarga yana berilaveradi, kambag'aldan bori ham tortib olinadi..." Nahotki, qani adolat? Ha, janoblar, biz kapitalistik tizimga kirib kelyapmiz. To'rvangizni yig'ishtiring!

Shunga ko'ra ong, fikr ham o'zgarishi kerak. Istaak-istamasak... Biz o'sha paytlar xuddi feodal asrlardagi kabi kanonik deb bilardik san'atni, adabiyotni... Nikolay Kozlov Moskvaga gastrolga kelgan Xitoy balerinalari baletini tomosha qilib o'tirarkan, san'at saviyasining yuksakligi bir yoqda qolib, o'zgacha fikrlagan-chi? "Balerinalar rosa maza qilishdi-yu, uch soat bir joyda o'tirib mening "ketim" og'rib ketdi", emish. Sovetlar poytaxti Moskvada yuz minglab adadda bosilib chiqqan kitobda shunaqa yozilsa-ya...

Ha, poytaxtdagi ruslar "sovetcha shinel"larni tezroq ulotirishdi. "Inson o'zi uchun yashash vaqti keldi!" deyishdi. Yana nimamish, "endi unyi

Ular rost so'zlashga intilmoqda



bezaib ichiga kirib o'tirib olish yo'q, uyni qalbga ko'chirib chet ellarda yaxshi hayot va valyuta izlash uchun ketish kerak".

Ammo 2000-yillardagi ancha yopiq mamlakatimizda hali biz uy qurmoq va eskicha yashamoq bilan ovora edik. Mening ichimda esa g'alayonlar... Shunga ko'ra talabalarga aytardim: "Hayotingiz kodlarini o'zgartiring, doira ichida aylanib qolmang, yotoqxona - o'qish, yotoqxona - o'qish... ertaga esa - uy - ish, uy - ish. Hayotingizni spiral tarziga o'tkazing. Yuksaling, hayotning keyingi aylanisida navbatdagi ulkan maqsadlarga erishing, doimo o'zgarib... Agar birortangiz o'zini o'zgartira olsa, hatto bir kishi bo'lsayam, men domlalik burchini bajargan bo'lardim. Har kuni o'zgarib, gurunglarni to'xtatib, shu menga kerakmi, deng. Kerakli kitobni, kursni, hunarni tanlang. Kelinglar, o'zgaraylik..."

Talabalarimdan biri shunday deb qoldi: "O'ylab ko'rsam, kunlarim bir xil o'tarkan, darsdan kelamiz, qizlar bilan gurung, g'iybat qilamiz, aylanamiz, shu... Har kun shunday, sinov, nazoratlarini amallab topshiramiz, tumanga uyga borib kelamiz va yana o'sha ahvol. Men so'zlarimdan ta'sirlanib, o'zimni o'zgartirishga chog'landim. Gurung-hangomalarini yig'ishtirdim, kurslarga yozildim, badiiy kitoblarni o'qiy boshladim. Qat'iy reja tuzdim. Qizlarning, ho, o'zgarish zo'r-u, deganiga parvo qilmasdim. Ammo o'n kun bo'lmay yangi tartibdan qattiq charchadim. Biroz o'zimni bo'sh qo'yishga qaror qildim. Suhbattariga qo'shilay desam, qiziqmas, kerak-

siz gap-so'zlar ekanini, men endi mutlaqo avvalgidek yashay olmasligimni angladim". Keyinchalik o'sha sobiq talabamni ko'rib qoldim. Ilmiiy ishi chet el bilan bog'liq ekan. Oq yo'l, azizam!

O'zim ham o'zgarishga harakat qilardim. Doimo xuddi Toshkentdagilardan orqada qolib ketgandek, tinmay o'qirdim. Va baribir qaytaman deb niyat qilardim. Kitob javonimga "Mashaqqatlar bilan yulduzlar sari" deb yozib qo'ygandim. "Nega mashaqqat bilan?" - eskicha fikrlash! Yaxshi hayotda sevib ishlash bilan, de. Qachon o'zgarasan, ey Sharq!

Ammo baribir inson o'zligini anglatishi kerak! Agar o'zimiz o'zligimizni anglasak, millat o'zligini anglaydi, milliy o'zlik anglasa, mustaqilligimiz metindek bo'ladi, 10-15 yildan so'ng bu anglanish vujudimizga singib, tomirimizda qon bo'lib oqa boshlaydi, deb ma'ruza o'qirdim u paytlar...

Bo'lmadi... bir necha urinishdan so'ng qaytdim poytaxtga - oilamni ikki bo'lib (dastlab), yosh bolalarim bilan sudralib, deganday! Ammo yangi hayotga ishonch kuchli edi. U yoqda adabiyotmas, tarix va boshqa ijtimoiy fanlardan dars beraverib ancha "o'sgandim". O'zimcha. Ammo yana hammasini "nol"dan boshlash, yangi qurgan uyimni "qalbga joylab" "spiralning keyingi aylanasiga" o'tish...

Toshkentga kelsam, men izlagan Toshkent yo'q. Fayz ketgan. Men ishlab yig'lab xayrlashib ketgan O'zR FASHI rahbari o'zgaragan, qayta isloh arafasida... U yerdagi ulug' ustozlar

"u yoqqa" ketishgan, bu dunyodagilari esa... Hamma tanishlar tirikchilik deb 2-3 joyda ishlab chopgan... Qanaqa "o'zlikni anglash", qanaqa "tafakkurni yangilash"... It egasini tanimaydi go'yo... Qani adabiy davralar, ilmiiy suhbatlar? "Vaqt yo'q-da".

"O'zlikning bekatlari" she'riy kitobimni chop ettirdim, keyinroq "Tan yurti"ni. Shu...

Urindim, oliy dargohda adabiyotdan emas, ijtimoiy fanlardan dars berganim, bahonada yangi bilimlarni o'zlashtirganim (diplomga ham o'qib olgandim) foyda berib, ilmiiy oila yuritish, bola tarbiyasida katta yordam qilardi. Yaqin-yaqinlargacha psixologlarning chiqishlarini ruscha "vidik"larda ko'rardim. Ammo jamiyat o'zgaragan, biroq yuksalmagan, sharaftga intilmasdi. Ammo... Istab intilganim, Vatanni, qora ko'z talabalarimni tashlab bir ilmiiy muhitga kira olmadim. Xo'sh, xatim nimada edi?

Men, singilimning so'zicha "kitobga kirib ketib" hayotni, odamlarni bilmagan ekanman. Va haqiqatdanam shunday edi. Jamiyatning xatosi-chi? Qalbga mustaqil vatan tushunchasi singdi, ammo vatan...

Yoshlarga kelsak... Bir kuni qararasam, "oynada - nur". Hozirgi yoshlar yangicha fikrlayapti. Dastlab...

Ha, davr o'zgardi, yoshlar bor bilimlarni yangicha matematik modellarga solib qayta o'zlashtiryapti, yangicha baholashyapti. Bu - tabiiy axir, deb o'ylardim. Yo'q, ularni yetarlicha baholamasdim. Keyingi paytda ruslardan o'rganiganim, chet el yoshlari fikriga xos "самооценка", "саморазвитие", "эмоционально-рухия тарбия", "psixologik yordam" kabilar yaqin besh-o'n yillardan beri o'zbek yosh yigit-qizlari hayotiga kirib kelib ancha o'sgan, ijtimoiy tarmoqlarning vositachiligi esa katta edi.

Va nuqul "mafkurani boshiga quyish kerak" degan qolip ish bermay, yoshlarning o'zi til o'rganish yo'li bilan, ayrimlari chet ellarda o'qishi kabi omillar ilmi barkamol yoshlarni ulg'aytirdi. E'tirof etish kerak - bunda xususiy o'quv markazlarining roli katta!!!

Baribir zamondan orqada qoldim. Agar Samarqanddagi men qadriga yetmagan oliy dargohda ishlayverganimda, balki bu qadar o'ksimasdim.

Ammo internet orqali o'z-o'zini rivojlantirayotgan yoshlarimiz ko'ngillarimizga umid uchuqunlari olib kiradi. Ular nafaqat tarixni va olamni qayta o'rganishmoqda, chuqurroq o'ylab qaralganda, eski avlod ko'tarmagan masalalarni o'rtaga tashlamoqda, ochiq va rost so'zlashga intilmoqda.

Mening aziz tengdoshlarim, biz yana ozgiranadan keyin aaancha orqada qolib ketishimiz mumkin. Mamlakatimiz ahli dunyoqarash masalasi turli toifalarga, afsuski. Dunyoqarash va g'oyalari ichki atom kabi qaltisdir. Hozirgi tushunchamiz bor paytda yoshlarni ko'laylik, ularning erkinlikka va ochiqlikka intilgan tafakkur tarzini to'g'ri qabul qilaylik va kelajakka ishonch bilan boqib, xuddi futbolchilarimizga dunyoviy g'alaba olib kelishiga umid bildirganimiz singari duolar bilan yoshlarni olqishlaylik!

Gulshan RAHIM,
filologiya fanlari nomzodi
Facebook

ZARDA


Hay, qalaysan, Landavur? "Jadid"ni o'qub turibsanmu? Tunov kun de, Matqovulning takyaxonasida birovi aytdiki, sani suratning gazetning orqa sahifasida urub chiqibdir, dedi. Kapalagim uchib ketubdur! Julqunboy zamonasidan ma'lumdurki, gazetning orqa sahifasida suratning chiqsa, rasvo bo'ldim deyaver! Yo, vallohu a'lam! Bir kun o'tti, ikki kun o'tti... bir hafta ham o'tti... munga hech kim hech narsa demadi, qutulib qoldim! Mushugim ham o'tobshuvoqda yotubdur, birovi "pish" deb aytmag'on! Va yokim emdi gazetga uradurmu, portalgaga soladurmu - parvoyi falakimkan? Undoqchangi bo'lsa, har kuni qiyshaygan suratim urilsa ham na parvoyim bor, Shukur mo'ylovning bir otim nosvoyichalik munga kayf bermaydur!

Hay, emdi xotirang faromush aylamagan bo'lsa, manim barmog'im bosilgan xat birla gazetda urib chiqilg'on talay tanqid qiling'onlar o'zlarini yo gazet o'qug'onidan va yokim o'qumag'onidan yo'qotib qo'yomqadalar. Ya'nikim, xususiy telekanallardagi reklomlarni urib chiqdukm? Urub chiqduk! Seriallar deganining ham po'stagini qoqudukm? Qoquduk! Mani nervimni o'ynatib, kayfimni chiqaroturg'on narsa shulki, vallo-matlar yana o'sha holi vasvasinda davom qiladur, parvo etmaydur! Va yokim manim so'zuning kuchini nosvoyimning kayfi kesdumukin va yokim alarning terisi qo'ng'ir ayuqning terisidek qalinlashib ketdumikan va yokim boshqa biron sababi bordurmi?

Hay, o'tgan zamon mashoyixlaridan birovi: "qo'shug'im qo'shuq, tamog'im teshuk, bir burda non bersang, aytaman

SEMIRIB KETAYOTGAN QO'YLAR

yoxud qo'shug'im qo'shuq, tamog'im teshuk



Husan Sodiqov chizgan surat.

qo'shuq", debtur. Buning ma'nisini bilurmusan, Landavur? Avval zamonlarda mashhoqlar yelkasinda xaltasini ortmoqlab, qay mo'ridan tutun ko'rinisa, o'shal tomon chopib, to'y-po'yga yo'lucsa, tilla topgan gadoydek suyunushib, raqs tushib ketishganidan xabaring bormidur? Naga shunday bo'lgan? Va yokim bir shaparak va yokim bir hovuch mayiz-turshak va yokim tanburiga bog'lab ketilgan bir tutam mato uchun! Naga deganda, mashhoqning topganida xayr-baraka bo'lmagan. Naga? Naga deganda, ba'zi bironing dahanidan to'kilgan gap-so'zda tuturiq bo'lmagan. Pul desa o'zini tomdan otib emaklab

ketgonlari ham bormidur deb so'ray-sanmu, Landavur? Uni man bilmadim, bilgichlar bo'lsa aytun, kegin man mulo-haza aylay.

Hay, tunov kun Matqovulning takyaxonasida virdi zamon qilinubdurki, bu zamon mashhoq-u ashulakashlarining aqchasi ko'payib, bosar-tusarini bilmay, bir-birining ustiga ot solib, g'alva-g'ishavani boshlab yuborayotg'anlari boshqalarni hayron qoldirmoqdaykan. Ko'pchilik ularning g'alva-g'ishavasi quloqlariga urilsa, bala-baqralarimizning tarbiyasi buzilmasun deb antena olmaydurg'on tog'u toshlarga ko'chib ketishmoqdaykan. Ammo bu odamlar-

ning o'ziga ham hayronsan, biladur, bilib turib nomaqbul ish qiladur - axir, alarning ustidan pul sochib, bardor-bardor qilg'on o'zlariku? Semuzlikni qo'y ko'taradi deganlaridek, oqbilak mashhoqlarda kuch qaydiki, buni ko'tarsa?

Bayt:
Vo darig', tortib to'qim,
san'atni biznes qildilo,
Ustiga iring'ib minib,
holini ... qildilo!

Hay, aytubdurkiki, pul-u meros-u boylik kibi nimarsalar ortida shayton uy qaradur emish. Qutquga soladur er-mish! Shu bosidan, o'tmish zamonlarda ham qozi-yu quzzotlar meros-u boylig-u pul mojarolarini hisob qila-qila, muhosib bo'lmishlar erish va shul bahonai sababdan riyoziyot ilm-u amallarini taraqqiy ettirib yubormushlar erish.

Hay, undoqchangi qozi-yu quzzotlar-u mahalla-kuyda Toshpo'lod tog'o kibi mardi maydonlar qaydiki, bundoqchangi avboshlarning tanobini tortib qo'ysalar! Urug'-qayosh, zardalik tag'o, pardalik ammalar qaydiki, uydan chiqarmay, qamab koyisalar! Aytisalariki, ho-oy bachalar, bu ne qilg'ulik, qo'ling bir qaro mehnat bilan qavarmay, ko'zing bir zahmat bilan xiralashmay shu el-u yurtning topganini to'y-hashamlarda misli ko'zboylag'ich jaraq-jaraq yulib-yulqub yotibsanmu, emdi alarni ham hurmatu izzatini joyiga qo'y-da, bachchag'ar, deydurg'on!

Hay, bunda el-u yurtda ne ayb deydur-sanmu, Landavur? El-u yurt ham kimni e'zozlashni bilsa, tamog'im teshuk deydurg'onlarga ro'ju qo'ymasa, alarning ustiga sochadurg'on, telpagi-yu do'ppisi ostiga qistiradurg'on do'llarlarini ko'zlarini mo'lltiratib turg'on bola-chaqalariga yedirsas, egni yangi kiyim ko'rmag'on ahlai yolini kiydursa, ortganiga Julqunboy tag'olar kitoblarini sotub olib o'qitsa, jadid amakilar ishini takrorlab, maktablar ochsa, asakasi ketadimi? O'zi asakalik emasmudursan, ranging paxtadek oqarub, peshonang terchillaydur?

Hay, man sanga aytam, Matqovulning takyaxonasidan ham fayz-u baraka ko'tarilubdur. Avvalgi mard-u maydon gap-so'zlardan urvoq ham qolmabdur. Jag'i kalushdek ochilg'on xotunlar kibi g'iybat bisyorlashubdur. Kimning pushti kamaridan kim to'ralgan-u ul qaysi zan-u diloromidan-u, kimning inisi kim-u, kimning otasi kimdur-u, onasi qaydadur? Evoh, Toshpo'lod tajang kimning tag'osi erdi? San shu dodumni girdig'um xeshing Ne'mat mirshabga mani nomim-dan shundoq-shundoq arz-u hol aylab bermaydurmisani? Nima, yozub barmoq bosmasan, mirshabning qilichi qinida zang bog'lasa ham kipruk qoqmaydurmu? Unda man kettum, man unda "Jadid"dan o'zga arz-u hol etadurg'on maskan topolmasman!

Topolmasman-a, topolmasman...
OV SAR

Jadid

Muassislar:

O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA'NAVIYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI

"SHAHIDLAR XOTIRASI"
JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning
birinchi o'rinbosari:
Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir:
Muhayyo Pirnafasova

Sahifalovchi:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar
muallifga qaytarilmaydi va ular
yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan
195115 raqam bilan ro'yxatga
olingan.
Kirill yozuvidagi adadi - 6291
Lotin yozuvidagi adadi - 11962
Media kuzatuvchilar - 9656
Buyurtma: G - 540.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko'rsatkichi - 222.
Tashkilotlar uchun - 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxonasi: (71) 203-24-20
Devonxonasi: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,
Buyuk Turok ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:10
Sotuvda narxi erkin.

